

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUSTA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT AVTOMOBIL YO'LLARINI LOYIXALASH, QURISH VA  
EKSPLUATATSIYASI INSTITUTI**

**"AVTOMOBIL YO'LLARI VA SUN'IY INSHOOTLAR"  
FAKULTETI**

**"Ijtimoiy fanlar" kafedrasining**

**"Kasbiy pedagogika"  
fanidan**

**MA'RUZALAR MATNI**

**Bilim soxasi: 100000 - gumanitar soha**

**Ta'lim sohasi: 110000- pedagogika**

**Ta'lim yo'nalishi: 5111000 – Kasb ta'limi (5310600-Yer usti transport  
tizimi va ularning ekspluatatsiyasi (avtomobil  
transporti), 5340800- Avtomobil yo'llari va  
aerodromlar)**

**Toshkent 2018**

“Kasbiy pedagogika” fanidan tayyorlangan ma’ruzalar matni , o’quv, ishchi o’quv reja va o’quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:

Abdurazakova D.A. – “Ijtimoiy fanlar” kafedrasining assistenti

**Taqrizchilar:**

N.A.Akbarov – TAYLQEI qoshidagi MO va QT markazi direktori,dotsent,p.f.n.

X.Ya.Sharifbaeva - TAYLQEI, “Ijtimoiy fanlar” kafedrasida dotsenti, p.f.n.

“AY va SI” fakulteti ilmiy uslubiy Kengash raisi:

” \_\_\_\_ ” avgust 2018 yil

\_\_\_\_\_

B.Mirzaahmedov

(*imzo*)

“Ijtimoiy fanlar”

Kafedra mudiri

” \_\_\_\_ ” avgust 2018 yil

\_\_\_\_\_

R. Xudayberganov

(*imzo*)

## **Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni**

### **O'zbekiston Respublikasida kasb-hunar ta'limi.**

O'zbekiston Respublikasida kasb-hunar ta'limi rivojlanish tarixi. Ta'lim to'g'risidagi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". Ta'lim tizimi uzluksizligi va davomiyligini ta'minlash. Uzluksiz ta'limning maqsadi, vazifalari, mazmuni, tuzilishi. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish va boshqarish to'g'risidagi asosiy me'yoriy hujjatlari.

### **O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida kasblar va mutaxassisliklarning sinflanishi**

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida kasblar va mutaxassisliklarning sinflanishi. Kasb-hunar kollejarini bitiruvchi kichik mutaxassislarga qo'yiladigan talablar. Ishchi kasblarni tahlil qila olish.

### **Kasb ta'limining falsafiy metodologik asoslari.**

Kasb ta'limining falsafiy metodologik asoslari. Kasb ta'limi tizimini tadqiq qilish metodlari.

### **Kasb ta'limining taraqqiy etish bosqichlari**

Kasb ta'limining taraqqiy etish bosqichlari. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ta'lim muassasalarini rivojlantirish istiqbollari belgilash. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish va boshqarish, kasb-hunar kollejarini bitiruvchi kichik mutaxassisga qo'yiladigan talablar.

### **O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi mazmuni**

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi mazmuni. Fan sohalari bo'yicha Davlat ta'lim standartlari. Kasbiy ta'lim mazmunini shakllantirish tamoyillari. Kasb ta'limining mohiyati, vazifasi va tavsifi. Kasbiy ta'lim mazmunini tanlash va tahlil qilishning ilmiy-metodik asoslari. Kasb-hunar ta'lim muassasalarini boshqarish tuzilmasi. Kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish qonunlari.

### **Kasbiy ta'limning chet el tajribalari**

Kasbiy ta'limning chet el tajribalari bilan aloqadorligi. Ta'limning dual tizimlari.

### **Kasbiy ta'lim shakllari, metodlari, tamoyillari. Kasbiy tarbiya.**

Ta'limning asosiy shakllari, tamoyillari hamda metodlari. Tarbiya metodlari xaqidagi bilimlarni amalda qo'llay olish. Kasb-hunar ta'limi mazmunini belgilovchi me'yoriy hujjatlar. Blok-modul o'qitishning metodik asoslarini amalda qo'llash.

O'qitish texnologiyasi – amaliy pedagogik fan sifatida. Faoliyatga yo'nalgan o'qitish metodlarini texnologik ta'minlash protseduralari.

## ***1-Mavzu: O'zbekiston Respublikasida kasb-hunar ta'limi.***

- 1.1. O'zbekiston Respublikasida kasb-hunar ta'limi rivojlanish tarixi
- 1.2. Ta'lim to'g'risidagi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi".
- 1.3. Kadrlar tayyorlashdagi kasbiy-malakaviy o'zgarishlar.

### **1.1. O'zbekiston Respublikasida kasb-hunar ta'limi rivojlanish tarixi**

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, kasbiy pedagogikani rivojlantirish uchun bir qancha yangi asoslar yuzaga keldi. Jumladan, «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida shakllantirilayotgan uzluksiz ta'lim tizimida kasb ta'limiga alohida o'rin berilishi natijasi sifatida kasb-hunar kollejlari va litseylarning tizimi shakllandi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» yuksak umumiy madaniyatga va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, siyosiy hamda ijtimoiy hayotda to'g'ri yo'l topa bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirish, shuningdek har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda puxta o'zlashtirgan, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutgan pedagogik g'oyani ilgari suradi.

Kasb pedagogikasi jahon miqyosida tan olingan eng ilg'or metodlar va yo'nalishlar bilan boyib bormoqda. Bugungi kunda o'zining keng tadbqiqini kutib yotgan, fanning boshqa sohalari bilan bog'liq ravishda ishlab chiqilgan yangi kontseptsiyalar va nazariyalar rivojlantirilmoqda.

Kasb pedagogikasi fani nisbatan yosh va ko'p sohalarda rivojlanib borayotgan umumiy pedagogikaning bir bo'g'ini sifatida kasbiy-texnik ta'limning rivojlanishi bilan o'zaro uyg'unlikda taraqqiy qilib bormoqda.

Shuningdek, Respublikamizda kasbiy ta'lim Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13 mayda qabul qilingan №204-sonli qarorlariga hamda o'quv-me'yoriy hujjatlar asosida isloh qilib borilmoqda.

Bugungi kunda Respublikamizda ta'limni rivojlantirishning yangi bosqichida kasb pedagogikasi fanining asosiy maqsadi - jahon talablari darajasida yangilanib borayotgan ishlab chiqarish sharoitlariga moslasha oladigan, iqtisodiyotimizni buyuk davlat darajasiga ko'taradigan mutaxassislarni tayyorlash va bu jarayonda asosiy omil sifatida beriladigan axborotlar hajmini emas, balki ijodiy yondoshuvni shakllantirish, mustaqil fikrlash va tadbqiq qilish sifatlarini tarbiyalashga e'tibor qaratish lozim.

«Kasb pedagogikasi» ning vazifasi quyidagilardan iborat:

- turli xil (tashkilotlarda) korxonalarda samarali mehnat faoliyatini amalga oshirish;
- aniq bir ishlab chiqarishning nafaqat texnik-texnologik, balki ijtimoiy-iqtisodiy istiqbollari belgilash;
- zaruriyat bo'lganda, boshqaruv va ijro funktsiyalarini qo'shish, ish qidirish davomida mehnat bozorida to'g'ri yo'l tanlash va xususiy ishlab chiqarishni yo'lga qo'ya olish.

Shuningdek, bo'lajak pedagoglar «Kasb pedagogikasi» kursida mutaxassislik bo'yicha bilimlarini kengaytiradilar hamda yangi tushuncha va qarashlar bilan qurollanadilar. Ushbu dastur ta'lim oluvchilarning milliy mafkura tarbiyasi, talabani rivojlantirish asoslari, o'qituvchi va o'quvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar, kasbiy ta'limning nazariy va amaliy asoslari haqidagi bilimlar bilan qurollantirish vazifasini bajaradi.

Fan bo'yicha talabalarning bilimi, uquvi va ko'nikmasiga qo'yiladigan talablar.

**a) bilishi kerak:**

- kasbiy pedagogikaning nazariy va uslubiy asoslari;
- ilg'or chet el tajribasini bilishi va ish yuritish usullarini egallashi;
- masalalarni ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik oqibatlarini hisobga olgan holda hal qilish.

**b) bajarishi lozim:**

- oliy kasbiy razryadlar doirasida amaliy ishni ishonch bilan bajara olishlari;
- ishlab chiqarishning o'zgarishiga umumta'lim yoki kasbiy tayyorgarlik hisobiga tez moslashish;
- shaxslararo munosabatlarni o'rnata olish va psixologik bilimlar asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish;
- foydalanuvchi doirasida kompyuterdan foydalanish;

**v) tasavvurga ega bo'lmog'i lozim:**

- kasbiy pedagogika sohasida;
- kompyuter tizimini boshqarishda;
- pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish sohasida;
- pedagogik mahoratni qo'llash va mustahkamlash sohasida.

«Kasb pedagogikasi» kursi o'quv rejada ko'rsatilgan barcha fanlar bilan o'zaro bog'liq. Ayniqsa «Umumiy pedagogika», «Oliy ta'lim pedagogikasi», «Umumiy psixologiya», «Odam anatomiyasi va fiziologiyasi», «Zamonaviy pedagogik texnologiya», «Kibernetika» va boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorlikda o'rganiladi.

**1.2. Ta'lim to'g'risidagi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”.**

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlari milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan bo'lib, yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir mutaxassis kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir. Dastur kadrlar tayyorlash milliy modelini ro'yobga chiqarishni, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda, turmushga moslashgan, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o'zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutadi. 1

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning asosiy maqsadi – yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning yaxlit tizimini barpo etish strategiyasi hamda asosiy yo'nalishlarini uning komponentlari: shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarish vazifalarini hisobga olgan holda ishlab chiqishdan iboratdir. Bu masalani ilmiy-pedagogik jihatdan to'g'ri hal etish, hozirgi kundagi tadqiqot ishlarining mavzusi va tadqiqotchilarning mashaqqatli mehnati tufayli amalga oshiriladigan muammodir. .

«Bozor iqtisodiyoti islohotlarini amalga oshirishda qanday chora-tadbirlar ko'rilishidan qat'iy nazar, malakali mutaxassislar etishmas ekan, qo'yilgan maqsadga erisha olmasligimiz mumkin. Malakali mutaxassislarni tayyorlashda oliy ta'lim muassasalari yangicha yondashuvlarni ishlab

chiqish vaqti keldi»<sup>1</sup> – degan edi Prezidentimiz I.A.Karimov. Bu jarayonni amalga oshirishda xorijiy tajribalardan samarali foydalanish va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining dastlabki bosqichlarini amalga oshirish va bozor iqtisodiyoti sharoitida kadrlarni tayyorlash muammolarini o'rganish ushbu mavzuni dolzarbligini belgilaydi.

Bu kabi muammolarning oqilona hal etilishi esa har tomonlama bozor munosabatlari talablariga javob bera oladigan iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlashga bog'liqdir. Chunki, iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida mustaqil Respublikamiz oldidagi yangidan-yangi maqsad va vazifalarni to'g'ri anglay bilgan, bu borada o'z fikr-mulohazasiga ega bo'lgan, o'zining etarli darajada zamon talablariga mos keluvchi bilim va tajribasiga ega bo'lgan iqtisodchi mutaxassislarga mamlakatimiz iqtisodiy-ijtimoiy rivojiga o'zining munosib hissasini qo'shishi mumkin. Biroq, yangi sharoitda samarali faoliyat yurita oladigan iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlash borasidagi muammo va kamchiliklarning mavjudligi tufayli, yuqorida aytib o'tilgan xususiyatlarni o'zida mujassam etgan mutaxassislarni tayyorlashda bir qator muammolar yuzaga kelgan bo'lib, ularning hal etilishi bevosita mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotini belgilab beruvchi hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Jumladan chet el ta'lim tizimidagi ilg'or tajriba elementlarini ta'lim tizimiga oz-ozdan joriy etish bo'lajak mutaxassislarimizni jaxon talablari darajasida yetuk bo'lishiga xizmat qiladi.

**The Department of Mechanical Engineering in the University of Strathclyde has embarked upon a radical change in its teaching methods for first-year students. The aim was to introduce active and collaborative learning in the large lecture room through the use of peer instruction – a version of Socratic Dialogue ('teaching by questioning') as developed by Professor Eric Mazur at Harvard University. The standard lecture/tutorial/laboratory format of traditional instruction was replaced by a series of two-hour active learning sessions involving short mini-lectures, videos, demonstrations and problem-solving, all held together by classroom questioning and discussion. A custom-built lecture theatre – the InterActive Classroom – was constructed in 1998 to enable this style of teaching. The classroom – which holds 120 students – was designed for group seating, and, to assist peer instruction, included the first Classroom Feedback System in Europe, now replaced by the Personal Response System (PRS). Peer instruction was initially used in introductory mechanics and thermo-fluids classes, but was quickly extended to mathematics. This accounted for half the compulsory engineering elements of the first year.**

*Strathclyde Universitetining mehanik injinerya bolimi birinchi kurs talabalari uchun oqitish uslubida kuchli o'zgartirish kiritdi. O'zgarish shundan iboratki katta ma'ruza honalarida garvard universitetida professor Eric Mazur tomonidan rivojlantirilgan –sokratik Diolog namunasi(savol berish orqali oqitish) faol va hamkorlikda o'qitish uslubi joriy etildi. An'anaviy talabdagi ma'ruza /seminar/ laboratoriya hajmi ikki soat faol o'rganish bilan o'zgartirildi, bu o'z ichiga kichik ma'ruzalar, videolar, ko'rgazmalar va muammo yechishlarni oladi, barchasi darsdagi savol javoblar va muhokamalar orqali yechiladi. Shunday ta'lim berishga imkon beruvchi odatiy tuzilgan ma'ruza joyi 1998 yilda barpo etilgan Inter Active Class Room deb ataladi. Bu xona guruh bo'lib o'tirishga mo'ljallangan bo'lib 120 ta talabalarni qamrab oladi va tengqurlar o'rganib fikr almashishlari uchun xizmat qiladi. Yevropadagi birinchi darsxona fikr almashish sistemasi xozirda shaxsiy javob sistemasiga o'zgartirilgan. Birinchi yili majburiy injinerlik elementlari uchun asos bolgan bunday uslub ilk*

*bora mehanika va termo-suyuqlik darsiga kirishda foydalanilgan, biroq tezda matematikani ham o'z ichiga olgan.*<sup>1</sup>

«Kasb pedagogikasi» fanining asosiy tushunchalari, mazmuni kasbiy ta'limning turli tizimlarida quyidagi vazifalarni bajarishi mumkin:

- o'qituvchilarning yangi va yanada murakkab tadbirlarni amalga oshirish maqsadida o'z kasbiy mahoratini oshirishi;
- kasbiy-texnik ta'limning yangi kontsepsiyalarini amalga oshirish vosita va yo'llarini yaratishga e'tiborni qaratish, faol-ijodkor shaxsni tarbiyalash;
- pedagogik bilimlarni egallashga yangicha yondoshuvlarni ishlab chiqish;
- ta'lim-tarbiyaning samarali shakl va metodlarini ishlab chiqish;
- rivojlanib boruvchi yangi pedagogik jarayonlarni loyihalash, ta'lim oluvchilarning barcha imkoniyatlari va qobiliyatlarini ishga solishi uchun sharoit yaratish, kasbiy mahoratni egallashi uchun sarflanadigan vaqtni qisqartirishga erishishdan iborat.

### **1.3.Kadrlar tayyorlashdagi kasbiy-malakaviy o'zgarishlar.**

Kasb ta'limi uzoq davrlar mobaynida har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilib borildi, biroq ushbu tadbir bitiruvchilarning kasbiy mahoratini shakllanish darajasini pasayishi hisobiga amalga oshirildi. Bu holat kasbiy mahoratni va layoqatni oshirish, insonning butun umri davomida o'z bilimini takomillashtirib borish va o'z-o'zini tarbiyalash ehtiyojini oshirishga xizmat qilmas edi. Respublikamiz ta'lim tizimidagi islohatlar natijasida kasbiy ta'lim ishchi kasblariga maxsus tayyorlash masalasiga, ta'lim oluvchi shaxsida kasbiy mahorat va layoqat sifatlarini shakllantirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Kasb mahorati deyilganda bitiruvchining yuqori darajadagi kasbiy ko'nikma va malakalarni egallaganligi tushuniladi, u shaxsning mehnat bozorida egallayotgan kasbi bo'yicha raqobatbardoshlik darajasida o'z aksini topadi. Kasbiy mahorat ishchi kuchlarining yuqori darajada moslashuvchanligini va yangiliklarni tez o'zlashtirishi, yangi ishlab chiqarish sharoitlariga oz vaqt ichida o'ta olishi, faoliyat sohasini mustaqil tanlay olishi kabi sifatlar bilan belgilanadi.

Bugungi kunda Respublikamizda ta'limni rivojlantirishning yangi bosqichida kasbiy pedagogika fanining asosiy vazifasi sifatida jahon talablari darajasida yangilanib borayotgan ishlab chiqarish sharoitlariga moslasha oladigan, iqtisodiyotimizni buyuk davlat darajasiga ko'taradigan mutaxassislarini tayyorlash va bu jarayonda asosiy omil sifatida beriladigan axborotlar hajmini emas, balki ijodiy yondoshuvni shakllantirish, mustaqil fikrlash va tadbir qilish sifatlarini tarbiyalashga e'tibor qaratish lozim. Kasb ta'limiga bo'lgan e'tiborning ortib borayotganligini quyidagilar bilan izohlash mumkin:

1. Ta'lim islohatlari natijasida gimnaziya, litsey, kollej va boshqa turdagi yangi o'quv muassasalarining shakllantirilishi va rivojlantirilishi;
2. Oliy o'quv yurtlarida kasb ta'limini tashkil qilish, alohida bo'lim va fakultetlarning tashkil etilishi;
3. Kasb pedagogikasining boshqa fanlar bilan yanada jipsroq bog'lanib borishi, istiqbolda amalga oshirilishi ko'zda tutilgan, bilim sohalari tutashuvida yangi kontsepsiya va nazariyalarning yuzaga kelishi;

---

<sup>1</sup> Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall. A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education.- Routledge New York, 2010. – 273b

4. Kasb ta'limi muassasalarining aholiga ta'lim xizmatlarini ko'rsatish turlarining ortib borishi, o'z bazasida tayyor mahsulot ishlab chiqarish va unga xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yishi, mehnatni tashkil qilishning ilg'or shakllarini joriy etishi va boshqalar.

Kasb pedagogikasi talabalarni ta'limi, tarbiyasi, o'qishi hamda rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi, ta'lim-tarbiya, pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash mezonlarini ishlab chiqadi, kasb ta'limi muassasalari turlarini va ularni boshqarish tizimini asoslaydi. Ushbu fan insonni kasbiy faoliyatga tayyorlash, o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash, malakali ishchi kuchini yangi talablar darajasiga moslab borishni ko'zda tutadi.

### **Qisqa xulosa**

Ushbu mavzuda «Kasb pedagogikasi» fani haqida, O'zbekiston Respublikasida ta'limni rivojlantirishning yangi bosqichida kasb pedagogikasi, uning rivojlanish bosqichlari, xodimlar tayyorlash jarayonidagi kasbiy-malakaviy o'zgarishlar, kasblarni tahlil qilish usullari, keng qamrovli va yuqori malakali xodimlarni tayyorlashga qo'yiladigan talablar, oliy kasbiy ta'lim va uning rivojlanish darajasi xususida atroflicha fikr yuritilgan va eng asosiysi talabalarga tushunarli tarzda bayon etilgan.

### **Ushbu mavzu bo'yicha tayanch tushunchalar:**

“Ta'lim to'g'risidagi» qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, uzluksiz ta'lim, «Pedagogika», “Kasb pedagogikasi”, kasbiy-malakaviy o'zgarishlar, kompyuter tizimini boshqarish, pedagogik texnologiya, pedagogik mahorat, pedagogik jarayon.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. O'zbekistonda kasb ta'limi islohoti qachondan boshlangan?
2. Xodimlar tayyorlashdagi kasbiy-malakaviy o'zgarishlar haqida fikr bildiring?
3. Keng qamrovli va yuqori malakali xodimlarni tayyorlashga qo'yiladigan talablar nimalardan iborat?
4. Kasb ta'limi vazifalariga nimalar kiradi?
5. Kasbiy mahorat nima?
6. Kasbiy ta'limning shakllanish jarayoni haqida Sizning fikringiz?
7. Kasb ta'limi tizimini rivojlantirishdagi asosiy yo'nalishlar nimalardan iborat?

## **Mavzu-2. O`rta maxsus, kasb-xunar ta`limi tizimida kasblar va mutaxassisliklarning sinflanishi.**

### **Reja**

1. O`rta maxsus, kasb-xunar ta`limi tizimida kasblar va mutaxassisliklarning sinflanishi.
2. Mutahassislik, kichik mutahassis, kichik mutahassis vazifalari, ularga qo`yiladigan talablar, kasbiy faoliyat sohasi
3. O`MKHT ta`lim muassasalarida ta`lim yo`nalishlari tushunchalari.
4. Ishi kasblarni tahlil qilish.

1. Kichik mutaxassislarni tayyorlash davlat va jamiyat ehtiyojlariga asoslanib, o`rta maxsus, kasb xunar ta`limi tayyorlov yo`nalishlari kasblar va ixtisosliklari tasniflagichida o`z ifodasini topadi. Amaldagi o`rta maxsus kasb xunar ta`limining tayyorlov yo`nalishlari, kasblar va ixtisosliklari umumdavlat tasniflagichi Oliy va o`rta maxsus kasb xunar ta`limi markazi tomonidan ishlab chiqilgan. U O`zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligining 2010 yil 12-iyuldagi "05-207" sonli Qarori bilan tasdiqlangan va 2010 yil 1-avgustidan amalga joriy etilgan.

Tasniflagich O`zbekiston respublikasining "Ta`lim to`q`risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to`q`risida"gi Qonun, O`zbekiston respublikasi Vazirlar maxkamasining 1998 yil 5 yanvaridagi "Uzluksiz ta`lim tizimi uchun davlat ta`lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to`q`risida"gi 5-sonli xamda 2000 yil 16 oktyabrdagi "O`rta maxsus, kasb-xunar ta`limining davlat ta`lim standartlarini tasdiqlash to`q`risida"gi qarorlari asosida tayyorlangan. Vazirligining

*Tasniflagich (Klassifikator)* – bu O`zbekiston respublikasining axborotlarni kodlashtirish va tartibga solish yagona tizimining tarkibiy qismidir.

Klassifikatorda ta`lim bosqichlari (bakalavriat, magistratura), bilim va ta`lim sohalari, ta`lim yo`nalishlari va mutaxassisliklari uettita raqamli kod bilan buegilanadi.

- mutaxassislik kodi;
- yo`nalish kodi;
- ta`lim sohasi kodi;
- bilim sohasi kodi;
- ta`lim dasturlari bosqichi kodi.

*Oliy ta`lim yo`nalishlari va mutaxassisliklari (klassifikatori) tasniflagichi*-Oliy ma`lumotli kadrlar tayyorlash uchun bakalavriat ta`lim yo`nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ro`yxati. Unda quyidagi sakkizta bilim sohasi ko`zda tutiladi:

1. Ta`lim (100000)
2. Gumanitar fanlar va san`at (200000)
3. Ijtimoiy fanlar, biznes va huquq (300000)
4. Fan (400000)
5. Muhandislik, ishlov buerish va urilish tarmoqlari (500000)
6. qishloq xo`jaligi (600000)
7. Sog`liqni saqlash va ijtimoi ta`minot (700000)
8. Xizmatlar (800000)

Tasniflagich YUnESKO tomonidan 1997 yil mart oyida qabul qilingan ta`limning xalqaro standart tasnifi printsiplari asosida tuziladi.

*Bakalavriat.* Oliy ta`limning birinchi bosqichida ta`lim dasturlari umumiy o`rta va o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi bilan uzluksiz va uzviylik ta`minlanishini inobatga olgan holda ishlab

chiqilishi va talabalarning quyidagi majburiy fanlar bloklarini o`zlashtirishni nazarda tutishi zarur:

-gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy;

-matematika va tabiiy-ilmiy;

-umum kasbiy;

-iqtisodiylik;

-qo`shimcha;

Kasbiy faoliyat uchun zarur ko`nikma va malakalarni bakalavriat ta`lim dasturlari bilan uzluksizlik va uzviylik ta`minlanishini ko`zda tutib, ishlab chiqilishi va talabalar tomonidan quyidagi majburiy bloklar o`zlashtirilishini nazarda tutishi zarur:

-umummetodologik fanlar:

-mutaxassislik fanlari;

-ilmiy faoliyat.

Ta`limning xalqaro standart klassifikatsiyasiga binoan ta`lim bosqichlari bakalavriat yo`nalishlarida 5 raqami, magistratura mutaxassisliklarida – 5 A (raqam va harf) bilan belgilanadi. Masalan: bakalavriat kodi 5140100, 5211300, 5520400 va hokazo; magistrlar 5 A 140101, 5A211301, 5A520403 va hokazo.

*Kasb-hunar ta`limi yo`nalishlari tasniflagichi* – o`rta maxsus va kasb-xunar ta`limi muassasalarida kichik mutaxassislar tayyorlash bo`yicha tayyorlov yo`nalishlari kasblarining va mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ro`yxati. Ta`limning xalqaro klassifikatsiyasiga binoan ta`lim bosqichlari dasturi bosqichi-o`rta maxsus kasb-xunar ta`limi 3 raqami bilan belgilangan. Masalan 3521200 Transport vositalarini ishlatish va ta`mirlash yo`nalishi

Tasniflagichdan quyidagi vazifani xalqaro etishda qo`llaniladi:

- Xududiy bandlik dasturini ishlab chiqish
- Milliy va xududiy muexnat bozorlarida ijtimoiy muexnat sohasidagi jarayonlarni ta`minlash va tartibga solish
- Mexnatga xaq to`lashni tartibga solish va mu`uorlash
- Iqtisodiyot soxalarining kadrlarga bo`lgan ehtiyojini ta`minlash
- Mexnat statistikasidagi axborotni xalqaro miqiyosda taqqoslanishini ta`minlash
- O`MKXT muassasalarida mutaxassislarga bo`lgan ehtiyojni shakllantirish.

*Tayyorlov yo`nalishlari*- aniq kasbiy faoliyat soxasida mutaxassislarga kasbiy ta`lim berish doirasi.

*Kasb*- maxsus tayyorgarlik va ish tajribasi natijasida ma`lum bir soxada kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun lozim bo`lgan nazariy bilimlar, amaliy ko`nikma va malakalar majmuasini xamda ikki va unday ortiq ixtisosliklarini egallagan, jismoniy imkoniyat, aqliy qobiliyat va yuridik xuquqlari ta`minlangan mexnat faoliyatining turi.

*Kichik mutaxassis*- ta`lim dasturini muvaffaqiyatli o`zlashtirgan o`rta maxsus, kasb-xunar ta`limi muassasalarida bitiruvchilariga beriladigan malakaviy daraja.

Kichik mutaxassislar quyidagi lavozimiy vazifalarni bajarishlari ko`zda tutiladi: kompyuter va boshqa texnikalardan, texnikaviy va fizikaviy fanlar soxasida foydalanish usullarini qo`llash bilan boq`liq texnik-texnologik topshiriqlarni bajarish.

Texnik jixoz va transportlarni ishlatish

Mashinalar, mexanizmlar, qurilmalar xamda muxandislikka oid texnik jixozlar va asboblarga texnik xizmat ko`rsatish hamda ta`mirlash

Xom ashyo qazib olish va qayta ishlatish

Bosiy ishlarini bajarish

Bolalar bog`chasi va boshlang`ich maktablarda ta`lim tarbiya ishlarini amalga oshirish

Kadrlarni tanlab olish, joy joyiga qo`yish va ularning ijtimoiy ta`minoti, soliqqa tortish, turizmga aloqador davlat xizmatlari, buxgalteriya xisobi, huquqiy, statistik, ish yuritish korxonalarini boshqarish va tijorat.

Odamlar va yuklarni milliy chegaralardan o`tkazilishi ustidan nazoratni amalga oshirish.

Ijtimoiy masalalar bo`yicha yordam ko`rsatish va maslaxat berish.

Sport va boshqa tadbirlarni tashkil etish va o`tkazish, madaniyat va san`at sohasida ijodiy faoliyat ko`rsatish va shu kabilar.

Bu vazifalarni bajarish uchun kichik mutaxassis ma`lum xajmdagi va darajadagi bilim, xatti xarakterlar usullari xamda shaxsiy fazilatlarini o`zlashtirishi zarur bo`ladi.

Albatta kichik mutaxassis kerakli bilim, ko`nikma va malakalarni egallashi uchun ta`lim jarayonida qiziqish bilan bilimlarni o`zlashtirgan bo`lishlari kerak. Xorijiy pedagoglar ma`ruzachilarning darsni qiziqtirib o`tishlari xaqida shunday fikr bildiradilar:

### **Generating and maintaining interest**

**Gaining and maintaining students' interest in the lecture is likely to increase their motivation to learn. The start of the lecture is crucial and needs to interest students sufficiently to convince them that it is worth staying, or staying attentive, for the next hour.**

**At the very beginning you should:**

- **appear enthusiastic and interested yourself;**
- **be organised, and take control of the lecture room on your arrival;**
- **know how to use the presentation equipment.**

Qiziqishni uyg`otish va saqlab davom ettirish

Nazariy darslarda talabalarni qiziqtirish va qiziqishda davom ettirish ularning ta`lim olishga bo`lgan istak xohishlarini oshishiga olib keladi.

Nazariy darsni boshidan qiziqtirib oxirigacha qolish muhim ahamiyatga ega.

Eng boshlanishida siz:

- O`zingiz qiziqgan va zavqqa to`la ko`rinsangiz yaxshi bo`ladi;
- Dars yaxshi tashkillashtirilishi kerak, siz ma`ruza tushuntirayotgan auditoriyangizni yaxshi qo`lga olishingiz kerak;
- Prezentatsiya jihozlaridan qanday foydalanishni bilishingiz kerak.<sup>2</sup>

*Kasbiy tayyorgarlik*-Iqtisodiyotning muayyan sohasida muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat ko`rsatishga imkon beradigan maxsus bilim, ko`nikma, malaka va mehnat tajribalari kabilar majmuasidir.

Egallanadigan ixtisoslikning murakkabligiga ko`ra kasbiy tayyorgarlik quyidagi asosiy darajalarga:

---

<sup>2</sup> Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall. A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education.- Routledge 2010. – 60b.

5-kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimi:

4-oliy o`quv yurtidan keyingi ta`lim;

3-oliy (bakalavriat, magistratura) ta`lim;

2-o`rta maxsus, kasb-hunar;

1-elementar ma`lumotga bo`linadi.

I. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash mutaxassislarining kasbiy bilim va malakalarini yangilash va chuqurlashtirishga qaratilgan. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta`lim muassasalaridagi o`qish natijalariga ko`ra davlat tomonidan tasdiqlangan na`munadagi guvohnoma yoki sertifikat topshiriladi.

II. Oliy o`quv yurtidan keyingi ta`lim jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarga bo`lgan ehtiyojlarni qondirishga, shaxsning ijodiy kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilgan.

Oliy o`quv yurtidan keyingi ta`limni oliy o`quv yurtalrida va ilmiy-tadqiqot muassasalarida (aspirantura, doktorantura, mustaqil tadqiqotchilik shaklida) olish mumkin. Oliy o`quv yurtidan keyingi kasbiy ta`lim dissertatsiya himoyasi bilan yakunlanadi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi natijalariga ko`ra tegishli ravishda fan nomzodi va fan doktori ilmiy darajasi berilib, davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomlar topshiriladi.

Oliy ma`lumot-oliy o`quv yurtlarida,

o`rta maxsus, kasb-hunar ma`lumoti-akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari;

elementar kasbiy ma`lumot-turli kasb-hunar kurslarda, individual (usta-shogird) ta`lim tizimida beriladi.

Kasbiy tayyorgarlik-kasbiy mehnat faoliyati jarayoni, malaka oshirish va mustaqil o`zi ustida ishlash jarayonida takomillashib, mahorat darajasi sayqallashib boradi.

O`zbekiston respublikasining «Ta`lim to`g`risida»gi amaldagi 1997 yil 29 avgustida qabul qilingan qonunining 13-moddasida «O`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi olish maqsadida har kim umumiy o`rta ta`lim asosida akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o`qishning yo`nalishini ixtiyoriy ravishda tanlash huquqiga ega.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari egallagan kasb-hunar bo`yicha ishlash huquqini bueradigan hamda bunday ish yoki ta`limning navbatdagi bosqichida davom ettirish uchun asos bo`ladigan o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi beradi.

Akademik litsey o`quvchilarning intelluektual qobiliyatlarini jadal o`stirishni, ularni chuqur, tabaqalashtirilgan va kasb-hunarga yo`naltirilgan bilim olishlarini ta`minlaydigan uch yillik o`rta maxsus o`quv yurtidir.

Kasb-hunar kolleji o`quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlangan kasblar bo`yicha bir yoki bir necha ixtisos olishni ta`minlaydigan uch yillik o`rta kasb-hunar o`quv yurtidir» - deb ko`rsatilgan.

Kasb-hunar kolleji tegishli davlat ta`lim standartlari doirasida o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi beradi.

Kasb-hunar kollejlari jihozlanganlik darajasi, pedagogik tarkibining tanlanganligi, o`quv jarayonining tashkil etilishi jihatidan yangi tipdagi ta`lim muasasasi hisoblanadi. Ular bir yoki bir necha zamonaviy kasb-hunarni egallash hamda tegishli o`quv predmetlarini chuqur o`rganish imkonini beradi.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan na`munadagi diplomlar beriladi. Bu diplomlar ta`limning keyingi bosqichlarida o`qishni davom

ettirish yoki egallagan ixtisos va kasb-hunar bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradi.

respublikamiz o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish va rivojlantirishi uchun quyidagilar zarur:

1. –akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari faoliyat ko'rsatishining me'uroiy asoslarini ishlab chiqish va joriy etish;
2. –soha uchun oliy ta'lim muassasalarining, ishlab chiqarish, fan va madaniyat sohasining mutaxassislarini jalb etgan holda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlashni, shu jumladan chuet ellarda tayyorlash va qayta tayyorlashni tashkil etish;
3. –o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davlat ta'limi standartlarini ishlab chiqish va joriy etish;
4. –o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalari uchun ta'lim va kasb-hunar dasturlari, o'quv-uslubiy majmualar ishlab chiqish;
5. –akademik litseylarning o'quvchilari mehnat faoliyat ko'nikmalarini egallashlari uchun ixtisoslashtirilgan dasturlar ishlab chiqish va joriy etish;
6. –kasb-hunar kolluejlarida tayyorlanadigan mutaxassislarga nisbatan ixtisos va kasb-hunar, malaka talablarining ro'yxatini ishlab chiqish;
7. –xududlarning jug'rofiy va duemografik shart-sharoitlarini va tegishli sohadagi mutaxassislarga bo'lgan mahalliy extiyojlarini hisobga olgan holda o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi ta'lim muassasalarining tashkil etilishini va ular oqilona joylashtirilishini ta'minlash, ularga o'quvchilarni imkon qadar oilasidan ajratmagan holda qamram olish;
8. –akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning moddiy-tuexnika va axborot bazalarini mustahkamlash.

2002 yilda ishlab chiqilgan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar tasniflagichiga binoan quyidagi sakkizta bilim sohasi bo'yicha 318 ta tayyorlov yo'nalishlarida kichik mutaxassislar tayyorlash ko'zda tutilgan.

1. Ta'lim;
2. Gumanitar fanlar va san'at;
3. Ijtimoiy fanlar, biznues va huquq;
4. Fan;
5. Muhandislik, ishlov buerish va qurilish tarmoqlari;
6. qishloq xo'jaligi;
7. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot;
8. Xizmatlar.

O'MKHT rivojlanishi tamoyillarigf quyidagilar kiradi:


- Ilgarilanma
- kasbiy ta'lim
- uzluksizlik
- ketma-ketlilik
- insonparvarlik
- demokratiklik.

Kasbiy ta'lim berish kishilarga kasb-hunar sirlarini o'rgatish juda qadim zamonlarda paydo bo'lgan. quldorlik jamiyatida kasbiy malaka bevosita mexnat faoliyati jarayonida berilgan. Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, hunarmandchilikni ixtisoslashib borishi, mehnat malakasi va ko'nikmasining murakkablashuvi to'plangan mehnat tajribasi, jumladan tizimlashgan bilim, malakalarini ma'lum bir tarzda avloddan avlodga o'tkazish zaruriyatini tuzdirdi. Bu ehtiyoj dastlab shogird-ustoz yo'li bilan amalga oshirildi. Sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi bilan turli darajadagi vasohadagi kasb-hunar o'quv yurtlari paydo bo'ldi. Kasb-hunar ta'lim tizimi mustaqil tarmoq sifatida dastlab UYEvropada, so'ng Amerikada shakllandi.

Kasb-hunar kollejlarda o`quv vaqtining 40 foizi umumta`lim fanlarini, 20 foizi maxsus fanlarni o`rganishga va 40 foizi ishlab chiqarish ta`limiga ajratildi.

Kasb-hunar ta`lim tizimining o`zga xususiyatlaridan biri - kasb-hunar kollejlarning ishlab chiqarish korxonalarini bilan uzviy aloqada bo`lishidir. Kasb-hunar kollejlari uchun baza bo`lgan korxonalar o`quvchilar uchun kerakli jihozlar asbob-uskunalar ajratadi, korxonada ishlab chiqarish amaliyotini o`tkazish uchun o`rin beradi.

Jamiyatning kasb-hunar sohiblariga bo`lgan ehtiyojlari: tanlangan kasbning mehnat mazmuni va istiqbollari haqidagi bilimlarni egallash; tanlangan kasbga o`zining mosligini va shu yo`nalishdagi o`quv yurtida o`qiy olish imkoniyatlarini anglab yetish; tanlangan kasbning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini tushunish kabilarni belgilaydi.



#### MEHNAT PREDMETI BO`YICHA KASBLAR TASNIFLARI

| Inson texnika   | Inson tabiat  | Inson Inson   | Inson-belgilar tizimi                                      | Inson-badiiy obrazlar  |
|---|---|---|--|--|
| Texnik tizimlar bilan munosabatda bo`lish talab etiladigan mehnat faoliyat: | Tabiat bilan munosabatda bo`lish talab etiladigan mehnat faoliyati: | Insonlar bilan munosabatda bo`lish talab etiladigan faoliyat: | Belgilar tizimi bilan munosabatda bo`lish talab etiladigan | rassom, kulol, kashtado`z, dizayner loyihalovchi va shu kabilar. |

|  |   |  |  |  |
|--|---|--|--|--|
| Asbobsoz-<br>chilangar, tokar,<br>radio-tuexnik,<br>avtomobillarni<br>sinovchi,<br>ta`mirlovchi<br>chilangar va shu<br>kabilar | Dexqon-fermer,<br>asalarichi,<br>chorvador,<br>zootuexnik va shu<br>kabilar | Tarbiyachi,<br>o`qituvchi,<br>to`garak<br>rahbari va shu<br>kabilar. | faoliyat:<br><br>Harf teruvchi,<br>ofset bosma<br>bosuvchi, va shu<br>kabilar. |  |
|--|---|--|--|--|

**MEHNAT QUROLLARI BO`YICHA KASBLARNING TURLARI**

|  |  |  |   |
|--|--|--|---|
| qo`l mehnati bilan<br>bog`liq:<br><br>asbobsoz-<br>chilangar,<br>avtomobillarni<br>ta`mirlovchi<br>chilangar,<br>bo`yoqchi,<br>suvoqchi vashu<br>kabilar | Mexanizm va<br>mashinalarni<br>ishlatish bilan<br>bog`liq:<br><br>Tokar,<br>frezolovchi,<br>haydovchi,<br>kombaynchi va<br>shu kabilar | Avtomatik qurilmalarni<br>ishlatish bilan bog`liq:<br><br>Dasturli stanoklar<br>opueratori, nazorat-<br>o`lchash uskunalari va<br>avtomatik qurilmalarni<br>ta`mirlovchi chilangar | Maxsus<br>qobiliyatlari ishga<br>solish bilan<br>bog`liq:<br><br>O`ymakor, rassom,<br>kulol, dizayner,<br>musiqachi, badiiy<br>so`z ustasi va shu<br>kabilar. |
|--|--|--|---|

**MEHNAT SHAROITI BO`YICHA KASBLARNING TURLARI**

|   |  |  |   |
|---|--|--|---|
| Ma`naviy javobgarligi<br>yuqori darajada<br>bo`lgan:<br><br>Jamoat tartibini saqlash,<br>davlat va Vatan<br>himoyasi, xizmat<br>ko`rsatish, shaxs<br>tarbiyasi bilan bog`liq<br>faoliyat. | O`ziga xos sharoitga ega:<br>Er va suv ostida, yuqori<br>harorat ostida, shovqin<br>tebranish, o`ta nam yoki<br>quruq sharoitda faoliyat<br>ko`rsatish kabilar bilan<br>bog`liq dengizchi, metro<br>haydovchisi, uchuvchi,<br>quyuvchi va shu kabilar. | Maishiy xizmat<br>bilan bog`liq<br>shart-sharoitlar:<br><br>Operator-<br>dasturchi,<br>havaskorlik raqs<br>jamoasi,<br>tabiatshunos va<br>shu kabilar. | Ochiq<br>havodagi<br>mehnat<br>sharoiti:<br><br>Dehqon-<br>fermer,<br>cho`pon, GAI<br>xodimi va shu<br>kabilar. |
|---|--|--|---|

*O`zingizni tekshiring.*

1. Kasblar va ixtisosliklar umumdavlat tasniflagichi nima?
2. Tasniflagich maqsad va vazifalari
3. Kasb, ixtisoslik, tayyorlov yo`nalishi tushunchalariga izoh bering
4. Kichik mutaxassis kim va uning lavozimiy vazifalari.

### **3- Mavzu Kasb ta'limining falsafiy metodologik asoslari.**

1.1. Kasb ta'limining falsafiy metodologik asoslari.

1.2. Kasb ta'limi tizimini tadqiq qilish metodlari.

1.1. Har bir mustaqil fan o'zining predmeti (mavzusi) va metodologik asoslariga egadir.

Jumladan, Kasb pedagogikasi ham fan sifatida shakllanib o'zining predmetiga ega bo'ldi.

Boshqa fanlar kabi Kasb pedagogikasi ham fan sifatida paydo bo'lar ekan, u avvalo jamiyatning talab va ehtiyojlari asosida paydo bo'ldi.

Shu sababli tarbiya jarayonini ijtimoiy hayotning ajralmas qismi deb qarash lozim, chunki tarbiyaviy ishlarni olib bormasdan turib jamiyatni, uning rivojlanishini tasavvur qilish qiyin.

Pedagogika fan sifatida boshqa fanlarga o'z ta'sirini ko'rsatib, bilim tizimining bir butunligini tashkil etadi. Shu bilan birga bir necha bo'limlarga bo'linishi mumkin.

Ularga: maktabgacha tarbiya, umumiy o'rta, o'rta maxsus, oliy ta'lim pedagogikasi va boshqalar.

Pedagogika fanining har bir ko'rinishi o'zining maxsus ko'rinishiga egadir. Bilim berishni falsafiy-metodologik bosqichi malakaviy pedagogikani umumiy ko'rinishlarida samarali bilim berishdan iboratdir. O'qitilayotgan yo'nalishni aniq muammolardan kelib chiqqan holda olib borilsa, samarali natijalarga olib keladi.

So'nggi yillarda falsafiy bilim berishga alohida e'tibor berilmoqda. Malakaviy o'qitish tizimida falsafiy bilim berish birinchi qadam bo'lib, bu sohada erishilgan yutuqlar va tajribalar qo'llanishi mumkin.

*Kasb pedagogikasining ilm sifatidagi o'rni.*

Kasb pedagogikasining ilmiy o'rnini aniqlash uchun uning ob'ekti va predmetini ajratib olish kerak. Bizga ma'lumki ilm bu haqiqatda sodir bo'lgan jarayonlarni o'rganish va isbotlashga yo'naltirilgan ilmiy bilim yo'nalishidir.

Ilmning predmeti – bu ob'ektning shunday ta'rifi borki, unda izlanishlar aniq yo'nalish bo'yicha olib boriladi.

Insonning madaniy va ma'naviy shakllanishi quyidagilar asosida amalga oshadi.

1. Ma'lumot
2. Madaniyat
3. Mentalitet

Pedagogik faoliyatda 2 asosiy yo'nalish mavjud.

Bir tomondan bu faoliyat o'qituvchining kundalik, o'quv va tarbiyaviy ishlariga, o'qituvchi va o'quvchi orasidagi o'zaro munosabatga, ta'lim-tarbiya ishlarida o'quvchining bilim, malaka va ko'nikmalariga bog'liqdir.

Pedagogika fanining asosiy masalasi esa bu jarayonni samarali va sifatli ta'minlashdir. Buning uchun esa aniq metod va tashkiliy shakllardan samarali foydalanish zarur. Ushbu metodda ma'lum miqdorda erkinlik, pedagogik san'at, pedagogik mahorat o'z o'rnini topgan bo'lishi kerak.

*Malakaviy tayyorgarlikda asosiy didaktik bosqichlar.*

1. O'quv yurtining bitiruvchisi quyidagi bilimlarga ega bo'lishi kerak:

- bitiruvchining egallaydigan ish o'rni;
- bitiruvchining dunyoqarash sifati;
- bitiruvchining standart talablariga javob beradigan bilimi;
- bitiruvchining ish o'rnida qo'llaydigan bilim, ko'nikma va malakalari;
- bitiruvchining mutaxassis sifatida shakllanishi va ijodiy ish olib borishi kabilar.

1. O'quv materialini mazmun jihatidan tanlashi.

O'quv materialini tanlash albatta uning mantiqiy ketma-ketligi, mazmunan bitiruvchining fikrlash doirasini va g'oyalarini ishlab chiqish, ilmiy farazni rivojlantirish va shu bilan birga kelajakda fanga o'z hissasini qo'shishga undamog'i kerak.

2. Tanlab olingan o'quv materialini tizimli tasniflash.

O'quv materialining asosiy qismi, uni mantiqiy fikrlash, tushunish va munozara qilishni talab etadi. Shu bilan birga uni o'zlashtirish, o'zining qobiliyatidan kelib chiqqan holda ijodiy yondoshish ham zarur.

3. Qabul qilinayotgan masalalarning echimini tajriba va sinovlardan o'tkazish.

Tanlangan materialning qanchalik to'g'ri yoki noto'g'riligini o'quv metodi va shakllarini ko'rib hal qilish mumkin emas. Buning uchun nazariy, amaliy va metodologik o'zaro bog'liqligi, didaktik va eksperimental metodlardan olingan etarlicha ishonchli bo'lgan tashxislari va amaliyotda bo'lgan dalolatnomalarni o'zaro bog'lab hal qilish kerak bo'ladi.

Bundan tashqari tanlangan o'quv materiallarni qanchalik darajada o'zlashtirilganligini og'zaki savol javobni to'g'ri tashkil etish orqali bilib olish mumkin bo'ladi. Bu xaqda chet ellik pedagoglar shunday fikr bildirishadi:

**The skills of asking and answering questions are not as simple as they might appear. Many general teaching and social skills communication texts deal with the skill of questioning (see e.g. Brown and Atkins, 1988). Good questioning techniques require continuing preparation, practice and reflection by students and teachers alike. Preparation of a repertoire of questions in advance will allow the teacher to work effectively and flexibly in the small group. Similarly, student-to-student interactions in groups is enhanced if students prepare questions at the outset or end of a class. The confidence of students is often boosted through preparation of content in the form of key and incisive questions on a topic. The type of question asked is also linked to promoting or inhibiting learning. Questions may be categorised in different ways, such as:**

| Open   |            | Closed   |             |
|--------|------------|----------|-------------|
| Broad  | Reflective | Narrow   | Recall      |
| Clear  | Probing    | Confused | Superficial |
| Simple | Divergent  | Complex  | Convergent  |

*Savolarga javob berish va so'rash usullari ular ko'ringanidek sodda emas.  
Savolarga javob berish mahorati ko'p yillik umumiy ta'lim va ijtimoiy*

*mahoratlar bilan bo'g'liqdir. (Broun va Atking, 1988 misolariga qarang). Yaxshi savol berish mahoratlari o'qituvchilar va o'quvchilar tomonidan ko'p amaliyot va ko'nikma, to'xtovsiz mashqlarni talab qiladi. Savollarni qayta ishlab takrorlash o'qituvchiga kichik guruhlarda samarali va qulay ishlash imkonini beradi. Agar talabalar dars jarayonda savollar berishsa, guruhlardagi bir talabadan boshqasiga o'zaro tasir oshiriladi. Talabalarning o'ziga ishonchi mavzuga oid savollarga tayyorlangan javob tarkibidan kelib chiqadi. O'rganishni cheklash va imkoniyatlari so'ralgan savollarni turlariga bog'liqdir. Savollar xar xil turlarda toifalanishi mumkin, misol uchun :*

|              | <b>Ochiq</b>       |                    | <b>yopiq</b>                   |
|--------------|--------------------|--------------------|--------------------------------|
| <b>Keng</b>  | <b>mulohazali</b>  | <b>tor</b>         | <b>eslatmali</b>               |
| <b>Aniq</b>  | <b>tekshiruvli</b> | <b>chalkashgan</b> | <b>yuzaki</b>                  |
| <b>Oddiy</b> | <b>turli xil</b>   | <b>murakkab</b>    | <b>uchrashuvli<sup>3</sup></b> |

Kasb ta'limi muammolariga qaratilgan ilmiy izlanishlar o'tkazishdan maqsad o'qitish va o'rgatish xususiyatlari, samarali metodlarni ishlab chiqish va amaliy qo'llash, texnik vositalarini qo'llashga doir masalalarni yechishdan iboratdir. Ilmiy izlanishlar olib borish uchun o'qituvchida fanning mazmunini chuqur bilish talab etiladi. Ko'pchilik bo'lajak pedagoglar talabalik vaqtlaridayoq pedagogik izlanishlar bilan shug'ullanadilar. Fan bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, maketlar, mustaqil ishlar uchun materiallar tayyorlaydilar. Ilmiy anjuman va seminarlarda ma'ruzalari bilan qatnashib o'zlarining pedagogik mahoratini oshirib boradilar.

Ilmiy pedagogik izlanishlarni jarayonini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin:

1. O'qituvchining adabiyotlar o'rganish va amaliy ishlari asosida muammoni aniqlashi.

O'qituvchi adabiyotlarni o'rganishi davomida quyidagilarni aniqlashi kerak.

- o'rganilayotgan muammo to'g'risida adabiyot muallifining fikr-mulohazasi;
- o'rganilayotgan muammo to'g'risida traditsion metoddan farqliroq kiritgan takliflari;
- qanaqa asosiy masalalar adabiyotlar yoritilmagan;
- muammoni yechishda keyingi olib boriladigan izlanishlar.

O'qitish jarayonida yuzaga keladigan muammoga quyidagilar kiradi

- o'qituvchi dars jarayonida qanday qiyinchilikka duch kuelish;
- kamchilik va qiyinchiliklarning yuzaga kelish sabablari.

---

<sup>3</sup> Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall. A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education.- Routledge New York, 2010. – 81b.

2. Gipoteza qurish ya'ni o'qitishni bosqichma-bosqich tashkil etish. Faktlar va ularni taqqoslash orqali izlanuvchi asoslangan taklifni beradi.

3. Izlanish natijalarini rasmiylashtirish va o'quv jarayoniga qo'llash.

*Kasb pedagogikasida izlanish metodlari.*

Izlanish metodlari 2 xil bo'ladi:

1. Nazariy
2. Empirik

Nazariy izlanish metodlariga: analiz. Sintez, modellashtirish, konkretlashtirish kiradi.

Empirik izlanish metodi: birlamchi va umumiy metodlarga bo'linib. Birlamchi metodlarga – kuzatish, og'zaki so'rash, suhbat, yozma so'rash, mutaxassislar bo'hsi, testlar kiradi.

Umumiy izlanish metodiga – tashxis qilishni o'rganish, pedagogik tajribani umumlashtirish va tajriba kiradi.

Bu metodlar malakaviy pedagogikada keng tarqalgan bo'lib, ishchilarning malakasini aniqlash, kasbiy muammolarni hal etishda keng tarqalgan Ish faoliyatini o'rganishda bajarayotgan ishning umumiy unumdorligini aniqlashda ish xulosasini o'rganuvchi tavsifnoma yordamida o'rganiladi.

Bugungi kunga kelib, malakali bilim tizimining rivojlanish tendentsiyasi bilimni regionlashtirish, integratsiyalash, standartlashtirish, demokratlashtirish va boshqalarning to'xtovsiz rivojlanishini amalga oshiradi.

Birinchi marta uzluksiz ta'lim kontseptsiyasi 1965 yilda YuNESKO Forumiga taqdim etilgan edi. Uni yirik nazariy olim Lengrandom olib chiqqan edi. Uzluksiz ta'limning asl mohiyatini biz «Bibliya», «Qur'on», «Hadislar» va hikmatli so'zlarda, umuman insoniyat tarixi va rivojlanishi hamda guvohi bo'lgan muqaddas kitoblarda ham ko'ramiz.

Ta'limning birlashishi.

Ta'limning rivojlanishi so'nggi 20 yil davomida hujjatlarda 2 aspekt to'g'risida so'z boradi.

Ilmiy texnikaning yutuqlari.

- a. Ilm va texnika yutuqlari, yangi texnologiya, yangi qo'llanmalar, ma'lumotlarni qayta ishlab chiquvchi moslamalarni keltirib, bu esa fanni rivojlantirishga olib keladi.
- b. Ta'lim standartlari.

Boshlang'ich malakaviy ta'lim standartlari berilgan ta'lim bosqichlarini va maqsadlarini talab qiladi.

1. Mutaxassis ishchi xodimlarning ta'limini davom ettirishi uchun minimal darajaga javob beruvchi baza tashkil etish.
2. Mutaxassislarning profilini mutaxassis tayyorlov sifatini oshirish orqali kengaytirish.
3. Uzluksiz ta'lim tizimi aloqasini yaxshilash va tayyorlov aspektlarini tartibga keltirish.
4. Davlat ichida va davlat tashqarisida xalqaro mehnat bozorida mutaxassislarning olgan bilimlariga ishonchni ta'minlash.

#### **Mavzu-4 Kasb ta'limining taraqqiy etish bosqichlari**

1. Kasb ta'limining taraqqiy etish bosqichlari.
2. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ta'lim muassasalarini rivojlantirish istiqbollari belgilash.
3. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish va boshqarish, kasb-hunar kollejlari bitiruvchi kichik mutaxassisga qo'yiladigan talablar.

1. O'zbekiston respublikasi Vazirlar Maxkamasining O'zbekiston respublikasi O'MKXTni tashkil etish chora tadbirlari to'g'risidagi Qarorida qayd etilishicha:

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida kadrlar tayyorlash ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan o'zaro hamkorligi asosida:

-ilg'or pedagogik texnologiyalarni yaratish va o'zlashtirish bo'yicha maqsadli innovatsiya loyihalarini shakllantirish va amalga oshirish, ilmiy-tadqiqot muassasalarining filiallarini, o'quv-ilmiy-ishlab chiqarish komplekslari va markazlarini tashkil etish;

-yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish uchun tajriba maydonchalarini tashkil etish orqali ilmiy tadqiqot natijalarini o'quv-tarbiya jarayoniga joriy etish;

-o'qitishni korxonalaridagi unumli mehnat bilan birlashtirish asosida kadrlar tayyorlash va ularni tarbiyalashning ikki tomonlama tizimini rivojlantirish, kasb-hunar kollejlari qo'shma ishlab chiqarishlar tashkil etish, ishlab chiqarish amaliyotini o'tash uchun o'quvchilarni ish o'rinlari bilan ta'minlash;

-korxonalar va ular birlashmalarining ham alohida mutaxassislarni va guruhlarni maqsadli tayyorlash, ham har xil turdagi va darajadagi o'quv muassasalarini muassis, vasiy, homiy sifatida mablag' bilan ta'minlashda qatnashishi;

-o'quv yurtlarini zamonaviy asbob-uskunalar, apparatlar va anjomlar bilan jihozlash, akademik litseylarda o'qiyotganlarga oliy ta'lim muassasasi va ilmiy-tadqiqot tashkilotining, kasb-hunar kollejlari qo'shma ishlab chiqarishlar tashkil etish, ishlab chiqarish amaliyotini o'tash uchun o'quv-moddiy bazasidan foydalanish imkonini berish;

-o'qiyotganlarning mehnat faoliyatiga va tovar mahsulot chiqargan holda ishlab chiqarish jarayoniga faol kirishishlari uchun sharoitlar yaratish;

ilg'or texnologiyalar sohasi pedagoglarini bevosita ishlab chiqarishda tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

2. Kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismlaridan biri uzluksiz ta'lim tizimi bo'lib, O'MKXT tizimi ushbu tizimning ixtiyoriy majburiy bosqichini tashkil etadi.

*Uzluksiz ta'lim* – malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'ziga qamrab oladi;

Uzluksiz ta'lim tizimi faoliyat ko'rsatishining printsiplari asoslari:

- Ta'limning ustivorligi - uning rivojlanishini birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi, bilim, ta'limning demokratlashuvi — ta'lim va tarbiya uslublarini tanlashda o'quv yurtlari mustaqilligining kengayishi, ta'lim va yuksak intellektning nufuzi;
- Ta'limning insonparvarlashuvi — inson qobiliyatlarining ochilishi va uning ta'limga nisbatan bo'lgan turli-tuman ehtiyojlarini qondirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustivorligining ta'minlaydigan inson, jamiyat va atrof-muhit o'zaro munosabatlarining uygunlashtirish;

- Ta'limning ijtimoiylashuvi - ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashi xosil qilish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodii fikrlani shakllantirish;
- Iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta'limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish
- Ta'limning milliy yunaltirilganligi — ta'limning milliy tarix, xalq an'analari va urf-odatlar bilan uzviy uygunligi, O'zbekiston xalqlari madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta'limni milliy taraqqiyotning o'ta muxim omili sifatida e'tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini xurmatlash;

Ta'lim, tarbiya va shaxs rivojlashishning uzviy bogliqligi, bu jarayonning xar tomonlama kamol topgan insoni shakllantirishga yo'naltirilganligi

Uzluksiz ta'lim tizimini islox qilish yo'nalishlari

- ta'lim tizimining kadrlar salohiyatini tubdan yaxshilash, tarbiyachi, o'qituvchi, muallim va ilmiy xodimning kasbiy nufuzini oshirish;
  - davlat va nodavlat ta'lim muassasalarining o'ar xil turlarini rivojlantirish;
  - ta'lim tizimining tarkibiy jihatdan qayta qurish, ta'lim, fan, texnika va texnologiyaning, iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan o'olda ta'lim va kasb-hunar ta'limi dasturlarini tubdan o'zgartirish;
  - majburiy umumiy o'rta ta'limdan o'rta – maxsus, kasb-xunar ta'limiga o'tilishini ta'minlash;
  - maxsus, kasb-hunar ta'limining markazlari sifatida fan va ishlab chiqarish integratsiyalashgan yangi tipdagi o'quv muassasalarini vujudga keltirish;
  - ilq'or texnologiyalarni keng o'zlashtirish, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, chet el investitsiyalari ko'lamlarini kengayishi, tadbirkorlik, kichik va xususiy biznesni rivojlantirish bilan boq'lik, yangi kasb-hunar va mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar, shu jumladan boshqaruv tizimi kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
  - milliy mustaqillik printsiplari va xalqning boy intelluektual merosi hamda umumbashariy qadriyatlarining ustivorligi asosida ta'limning barcha darajalari va bo'tsinlarida ta'lim oluvchilarning ma'naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish;
  - ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, jamoat boshqaruvi shakllarini rivojlantirish, ta'lim muassasalarini mintaqalashtirish;
  - ta'lim olishda, shuningduek bolalar va yoshlarni ma'naviy – axloqiy, intellektual va jismoniy jihatdan tarbiyalashda oila, ota – onalar, jamoatchilik tashkilotlari, mahallalar, xayriya va xalqaro fondlarning rolini kuchaytirish yuzasidan chora – tadbirlar ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirish;
  - ta'lim jarayoni va kadrlar tayyorlash sifatiga xolis baxo berish tizimini yaratish va joriy etish;
  - ta'lim tizimini moliyaviy, moddiy – texnik va boshqa tarzdagi resurslar bilan ta'minlash mexanizmlarini shakllantirish;
  - uzluksiz ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan itegratsiyalashtirishning puxta mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish;
  - ta'lim va ilm-fan bilan boq'liq, chet el hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish va rivojlantirish;
- tub yerli millatga mansub bo'lmagan shaxslar zich yashaydigan joylarda ular o'z ona tillari ta'lim olishlari uchun tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlar yaratish

Hozirgi zamon talablariga javob beradigan bilimli, malakali mutaxassislarni tayyorlash va tarbiyalashning ta'lim tizimidagi o'zgarishlarning mohiyatini tashkil etadi.

1.2. Uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi. O'zbekiston respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiutotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir.

Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayuorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

Ta'lim muassasalarini hududiy yo'nalishga o'tkazish va tarkibiy tuzilmasini o'zgartirish ishi amalga oshiriladi. Uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish va uning samaradorligini baholash monitoringi amalga oshiriladi.

Uzluksiz ta'lim tizimi uchun pedagog kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash ustivorligi ta'minlanadi.

Ta'limning uzluksizligi shunday ma'no beradiki, inson tug'ilgandan boshlab toki umrining oxirigacha ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lsin.

Bunday tizim O'zbekiston respublikasining "Ta'lim to'g'risida qonuni"da o'z aksini topgan.

*Kasb-hunar ta'limi*- talabalarning kasb-hunarga moyilligini, layoqatlarini, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish ularning tanlagan yo'nalishlari bo'yicha bir yoki bir necha zamonaviy kasb egallash imkonini beradi.

*Oliy ta'lim* – uzluksiz ta'lim tizimining yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi mustaqil turi. U oliy ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi. Oliy ta'lim quyidagi ikki bosqichdan iborat: *bakalavriat* va *magistratura*.

*Bakalavriat* – o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi nuegizida oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha fundamantal bilimlar bueradigan, o'qish muddati to'rt yildan kam bo'lmagan tayanch oliy ta'lim;

*Magistratura* – bakalavriat nuegizida o'qish muddati kamida ikki yil bo'lgan aniq mutaxassislik bo'yicha oliy ta'lim;

*Bakalavr, magistr* – oliy ta'limning tuegishli bosqichiga muvofiq dasturlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirgan shaxslarga beriladigan *akademik darajalardir*.

Yuqorida keltirilgan qisqa jumlar mazmuni, ular umuman respublikamiz ta'lim tizimi, shuningdek kasb-hunar ta'limining ham metodologik asosi ekanligiga ishoradir. Kasb-hunar ta'limining metodologik asoslarisiz uni maqsadi, vazifalari, mazmuni, tashkil etish shakllari, metod va vositalari, ishtirokchilari, natijalari hamda bu jarayonga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish mumkin emas. Kasb-ta'limining metodologik asoslarini uning me'yoriy hujjatlari aniqlashga imkon beradi.

*Kasbiy ta'lim rivojlanishining qarama qarshiliklari*

- ijodiy shaxsni tarbiyalash va konkruet ijtimoiy ishlarni amalga oshiruvchilarni tayyorlash o'rtasidagi karama karshilik
  - umumiylik va sifat, unifikatsiya va individuallik o'rtasida
  - axborot xajmining ortib borishi bilim olishning portsionligi
  - ijodiy, mustaqil shaxsni tarbiyalash va "talablar" pedagogikasi
  - ijtimoiy iqtisodiy o'zgarishlarda ta'lim o'rnining oshishi va uning jamiyat tomonidan olinmasligi
- Qarama-qarshiliklar yechimi*
- shaxsga qaratilgan ta'lim berish ketma-ketlik va uzviylikni amalga oshirish
  - bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarida kasbiy ta'limning o'quv-meyoriy xujjatlarini taxlil qilish demokratlashtirish, faol usullardan foydalanish
  - o'qimishli odamlarning obro'sini oshirish, ularni ish bilan ta'minlanish imkoniyatini kengaytirish

Bundan tashqari ta'lim sifatiga salbiy ta'sir etuvchi bir qancha omillar xam mavjud ular haqida chet ellik pedagoglar adabiyotlarida quyidagicha yoritishgan.

### **Late arrivals**

**Unless there is very good cause, the expectation must be that students arrive on time, as the lecture will start promptly. Although not generally acceptable,**

you may set a deadline that they may enter the lecture up to ten minutes late, but should come in quietly. You may wish to state that students should not come into the lecture theatre more than ten minutes after the start.

The key is then to enforce these rules from the outset.

### Students chatting

Students know that they are not meant to be chatting in the lecture so it is not necessary to make this a ground rule. Similar methods to those mentioned above – a hard stare, or a short pause, may be enough to stop it. If it continues, ask the students directly if they have any questions about what is being covered. In extreme cases, it might be necessary to ask troublesome students to leave the class.

### Use of mobile phones

The lecturer can ask students at the start of every lecture to switch off their mobile phones – it could even be the first slide in your PowerPoint presentation. If a mobile phone does go off, pause, looking in the direction of the noise. Again, humour might help here, but use the occasion to remind students that they are breaking the ground rules and disrupting others.

### Kechikib kelishlar

*Jiddiy sabablar bo'lmaguncha, talabalar darsga o'z vaqtida yetib kelishlari kerak. Ma'ruzani kechiktirmay boshlash zarur bo'ladi. Siz umumiy bo'lmagan holatlarga qaramasdan, ularni ma'ruzaga 10 minutgacha kechikib kirishlari mumkinligi ammo tinchgina kirishi haqida bildirishnoma berishingiz mumkin. Siz talabalarni ma'ruza boshlangandan 10 minut keyin ma'ruza xonasiga kirmasliklari haqida talab qilishingiz mumkin. Yechim dars boshlangandan keyin bu qoidalarni joriy etishdir.*

### Talabalarning suhbatlashishi

*Talabalar ma'ruza vaqtida gaplashayotganliklari asosiy qoida qilib belgilanmaganligini bilishadi. Ushbu holatda -o'tkir nigoh bilan qarash yoki qisqa pauzaga o'xshash usullar buni to'xtatishga yetarli bo'lishi mumkin. Agar u davom etsa to'g'ridan to'g'ri talabalardan ular nima savolni muhokama qilayotganligini so'rang. Keskin hollarda bu bazi muammo tug'diradigan talabalardan darsdan chiqib ketishni so'rashingiz mumkin.*

### Telefonlardan foydalanish

*Maruzachi talabalardan har bir ma'ruzaning boshlanishida ularning telefonlarini o'chirishlarini talab qilishi kerak-bu hatto sizning prezentatsiyangizning birinchbi slaydi bo'lishi mumkin. Agar telefon jiringlab qolsa, to'xtab, shovqinning yo'nalishi tomonga qarang. Yana bu yerda hazil yordam berishi mumkin, ammo bu holatda talabarga asosiy qoidalarni buzayotganligi va boshqalarga halaqit berayotganligini eslatib qo'ying.<sup>4</sup>*

Uzluksiz ta'lim tizimi faoliyat kursatishning printsiplial asoslari:

---

<sup>4</sup> Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall. A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education.- Routledge – 68 b

- Ta'limning ustivorligi - uning rivojlanishini birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi, bilim, ta'limning demokratlashuvi — ta'lim va tarbiya uslublarini tanlashda o'quv yurtlari mustaqilligining kengayishi, ta'lim va yuksak intellektning nufuzi;
  - Ta'limning insonparvarlashuvi — inson kobiliyatlarining ochilishi va uning ta'limga nisbatan bo'lgan turli-tuman ehtiyojlarini qondirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustivorligini ta'minlayuppi inson, jamiyat va atrof-muhit o'zaro munosabatlarining uygunlashtirish;
  - Ta'limning ijtimoiylashuvi - ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashi xosil qilish, ularda yuksak madaniyat, madaniyat va ijodiy fikrlarni shakllantirish;
  - Iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta'limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish
  - Ta'limning milliy yunaltirilganligi — ta'limning milliy tarix, xalq an'analari va urf-odatlar bilan uzviy uygunligi, O'zbekiston xalqlari madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta'limni milliy taraqqiyotining o'ta muxim omili sifatida e'tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmatlash;
- Ta'lim, tarbiya va shaxs rivojlashishning uzviy bogliqligi, bu jarayonning xar tomonlama kamol topgan insoni shakllantirishga yo'naltirilganligi.

3. O'zbekiston respublikasi O'MKXTni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi Qarorida quyidagilar o'z aksini topgan:

#### 5. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini boshqarish

5.1. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlariga tashkiliy, o'quv-uslubiy va ilmiy rahbarlik qilish, davlat ta'lim standartini ishlab chiqish va joriy etish, o'quv ta'lim va kasb-hunar dasturlarini birxillashtirish, pedagog kadrlar bilan ta'minlash, ularni tayyorlash va qayta tayyorlash Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi), uning hududiy boshqarmalari tomonidan tarmoq vazirliklari, idoralar va korxonalar bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Tarmoq vazirliklari, idoralar, korporatsiyalar, kontsernlar, uyushmalar va korxonalar kasb-hunar kollejlari ikki tomonlama bo'ysunishda bo'ladi. Tarmoq vazirliklari, idoralar, korporatsiyalar, kontsernlar, uyushmalar va korxonalar ularni moddiy va moliyaviy ta'minlashni, o'quvchilarni kasbga o'rgatishni va ularda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishni amalga oshiradilar, mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojni aniqlaydilar, bitiruvchilarni ishga joylashtirish masalalarini hal qiladilar.

Madaniyat ishlari vazirligi, Badiiy akademiya, Sog'liqni saqlash vazirligi kasb-hunar kollejlari ularning tasarrufida bo'ladi.

5.2. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasini direktor boshqaradi. Davlat ta'lim muassasasining direktori ta'limni boshqarishga vakolatli bo'lgan yuqori organ tomonidan, zarur hollarda tegishli vazirlik va idora bilan kelishilgan holda, akkreditatsiya qilingan nodavlat ta'lim muassasalarida — ta'sis hujjatlariga muvofiq lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi. Direktor ta'lim muassasasining faoliyati natijalari uchun shaxsan javob beradi.

5.3. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi xodimlarining lavozim huquqlari va majburiyatlari, rahbarlarning vakolatlari va funktsiyalari qonunchilikka, tegishli me'yoriy hujjatlarga, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasining Ustaviga muvofiq belgilanadi.

5.4. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarda pedagogika Kengashlari tuziladi, ular ta'lim muassasasi direktori huzuridagi o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va takomillashtirishga ko'maklashuvchi organ hisoblanadi.

Pedagogika Kengashining funksiyalari ta'lim muassasasi ustavi bilan belgilanadi.

1.5. Ta'lim muassasalarida vasiylarni, ijro etuvchi hokimiyat mahalliy organlari, vazirliklar, idoralar, korporatsiyalar, uyushmalar va korxonalar, jamoat tashkilotlari, jamg'armalarning vakillarini o'z ichiga oluvchi, O'zbekiston respublikasi qonun hujjatlariga va maktab Ustaviga muvofiq ish olib boruvchi jamoatchilik boshqaruvi organlari (vasiylik kengashlari) tuzilishi mumkin.

Boshqaruv organlari barkamol avlodni ukitish va tarbiyalash soxasida yagona davlat siyosatini amalga oshirishlari, etilgan masalalarni uz vaktida va ijodiy xal etishlari, barcha ukuv yurtlarining ish saviyasi xozirgi zamon talablariga muvofik oshirilishini ta'minlashlari kerak.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishdan bosh maqsad va pirovard natija xar jixatdan barkamol avlodni tarbiyalash, XXI asrning erkin fikrli, uz vatani va xalqini manfaatlariga sadoqatli yorqin shaxslarni voyaga etkazishda namoyon buladi. Bu maksadga erishish umumiy demokratik yangilanishlar jarayoni, jamiyatni erkinlashtirish, mamlakatda yangi ijtimoiy-siyosiy muxitni shakllantirish bilan boglikdir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish, xayotga tadbiq qilish, xech bir mubolagasiz, strategik maqsadlarimiz farovon qudratli demokratik davlat, erkin fukarolik jamiyati barpo etishimizning asosi bulmogi lozim.

Bu barcha davlat va jamoat tashkilotlari, tabiiyki, eng avvalo, uzluksiz ta'lim tizimi muassasalari faoliyati mazmunini tubdan qaytadan kurib chikishni takozo etadigan murakkab jarayondir. Ijtimoiy amaliyot, jamoatchilik tarbiyasi, ta'lim va tarbiyaning anik maqsadga qaratilganligi - erkin shaxsni shakllantirishning asosini tashkil etadi.

Erkinlashtirish, jamiyatni ma'naviy yangilash, birinchi navbatda, yosh avlod an'analari insonparvarlik va demokratik qadriyatlarni singdirish orqali ta'minlanadi.

Jamiyatni ma'naviy yangilash jarayonida, shunga asoslangan xolda Vatan madaniyati va milliy san'atini rivojlantirish, ularning yutugini xorijiy mamlakatlarida targib va tashvik etish, yoyish, milliy va xalkaro tanlovlar, kuriklar utkazish kabi chora-tadbirlarni faollik bilan amalga oshirish ayniksa, yoshlar badiiy ijodiyotini yanada rivojlantirish aloxida axamiyatga egadir. Uzbek xalki va uning davlatchilik tarixi, Uzbekiston xalklarining badiiy, falsafiy va pedagogik tafakkuri shakllanishi va rivojlanishi tarixi, etnografiya, etnogenez, adabiyotshunoslik, ijtimoiy-gumanitar fanlarning barcha yunalishlarini yangi saviyaga kutarish talab kilinadi. Mazkur muammolar doirasida ilmiy izlanishlar olib borishning kontseptual asoslari Uzbekiston Prezidentining "Tarixiy xotirasiz - kelajak yuk" risolasida chukur taxlil etilib, boshlab berilgan.

Ma'naviy yangilanish jarayoni milliy bayramlar, urf-odatlar, uyinlar shaklida mavjud bulgan taraqqiyparvar milliy qadriyat va an'analarni qayta tiklash, ularni rivojlantirish va zamonaviy xayotga joriy etish bilan xam uzviy bogliqdir.

## 5 – Ma’ruza . O`rta maxsus, kasb-xunar ta`limi mazmuni

*Reja:*

1. O`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi (O`MKHT) tushunchasi, mazmuni.
2. Kasbiy ta'lim mazmunini shakllantirish tamoyillari.
3. Kasb ta'limining mohiyati, vazifasi va tavsifi. Kasbiy ta'lim mazmunini tanlash va tahlil qilishning ilmiy-metodik asoslari
4. Kasb-hunar ta'lim muassasalarini boshqarish tuzilmasi. Kasbiy bilim, ko`nikma va malakalarni shakllantirish qonunlari.
5. Standartlashtirish, davlat ta`lim standartlari.

1. O`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi to`q`risidagi nizomga asosan:

O`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi bilim asoslarini chuqur o`rganishni, tanlangan kasb-hunar bo`yicha kichik mutaxassis sifatida mustaqil amaliy ishlash uchun kadrlar tayyorlashni ta`minlaydi.

Ta`limning ushbu turi maqsadi va vazifalarini ro`yobga chiqarish uchun zarur tashkiliy, o`quv-uslubiy, moddiy-tuexnikaviy va psixologik-puedagogik shart-sharoitlarni ta`minlaydigan akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi muassasalari hisoblanadilar.

1.3. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari yuridik shaxs hisoblanadi, qonunchilikda belgilangan tartibda tashkil etiladi, Ustav va mazkur nizom asosida faoliyat ko`rsatadi.

Imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan kolluejlar faoliyati xususiyatlari O`zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan Imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kolleji to`q`risidagi nizom bilan belgilanadi

1.4. O`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi muassasasi Ustavi O`zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 5 yanvardagi 5-son qarori bilan tasdiqlangan «Ta`lim muassasasi Ustavini ishlab chiqish tartibi»ga hamda mazkur nizomga muvofiq ishlab chiqiladi, ta`limni boshqarishning vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadi va mahalliy davlat hokimiyati organlarida ro`yxatdan o`tkaziladi.

2. O`rta maxsus, kasb-hunar ta`limining maqsadi, vazifalari va uni tashkil etish

2.1. Kasb-hunar bo`yicha chuqurlashtirilgan, tabaqalashtirilgan ta`lim berish, o`quvchilarning intuelluektual rivojlanishini va ularning o`z qobiliyatlari va moyilliklariga muvofiq tanlagan kasb-hunar bo`yicha mutaxassisliklarni egallashini ta`minlash o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limining maqsadi hisoblanadi.

2.2. Quyidagilar o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limining vazifalari hisoblanadi:

davlat ta`lim standartlari doirasida umumta`lim va kasb-hunar dasturlarini bajarish;

o`quvchilarning uzluksiz ta`limning keyingi bosqichida o`qishni davom ettirishi, tanlangan mutaxassisliklar bo`yicha mehnat faoliyati bilan shug`ullanishi uchun zarur va yetarli bo`lgan bilimlar hamda kasb tayyorgarligi darajasini chuqurlashtirish;

respublika iqtisodiyotining malakali kichik mutaxassis kadrlarga bo`lgan ehtiyojini qondirish.

2.3. O`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi akademik litseylarda va kasb-hunar kollejlarda kunduzgi o`qish shaklida amalga oshiriladi.

Akademik litsey — o`qitish muddati uch yil, davlat ta`lim standartlariga muvofiq o`rta maxsus ma`lumot beradi, o`quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishini, chuqurlashtirilgan, tabaqalashtirilgan holda o`qitishni ta`minlaydi.

Akademik litseylarda o`quvchilar o`qishni oliy ta`lim muassasida davom ettirish yoki mehnat faoliyatida ro`yobga chiqarish maqsadida bilimlar darajasini oshirishni va maxsus kasb-hunar ko`nikmalarini shakllantirishni ta`minlaydigan o`qish yo`nalishini (ta`lim fanlari va kurslarini puxta o`zlashtirish sohasi: gumanitar, tabiiy-ilmiy) ixtiyoriy ravishda tanlaydilar.

Akademik litseylar, qoidaga ko`ra, oliy ta`lim muassasalari huzurida tashkil etiladi, ularning o`zaro munosabatlari ularning ustavlari hamda boshqa me`yoriy hujjatlar bilan tartibga solib boriladi.

Soha bo`yicha, tabaqalashtirilgan holda puxta o`qitishni amalga oshirish uchun ilmiy-tadqiqot tashkilotlari O`zbekiston respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi bilan bitim asosida akaduemik litsueylarga homiylik qiladilar.

Kasb-hunar kolleji — o`qitish muddati uch yil, davlat ta`lim standarti doirasida o`rta maxsus, kasb-hunar ma`lumoti bueradi, o`quvchilarning kasb-hunar layoqatlarini, ko`nikma va o`quvlarini rivojlantirishni, ularning tanlangan kasb-hunar bo`yicha bir yoki bir nechta mutaxassislikka ega bo`lishini ta`minlaydi.

Kasb-hunar kollejlarda kasbga o`qitish yo`nalishlari O`zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan O`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi yo`nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga muvofiq, respublika hududlarini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish, shuningduek mehnat bozorining kichik mutaxassislarga bo`lgan ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

*Standartlashtirish* - mavjud vazifalarni uechish uchun ma`lum sohaga tuegishli optimal yutuqlarga erishishga qaratilga talablarni belgilash

*Standart* – mas`ul ko`mita tomonidan ma`qullangan standartlashtirish bo`yicha amalga oshirilgan aniq faoliyat natijasi. standartlashtirish mutaxassilarni tayyorlashga ma`lum talab va sifatni kafolatlaydi.

kasbiy ta`lim standarti –me`yoriy xujjat bo`lim, ma`lum ixtisoslik bo`yicha kasbiy va umumiy tayyorgarligi oshirish bo`yicha talab, qonuniyat va printsiplari belgilanadi

O`MKXT tizimini standartlashtirishning asosiy vazifalari:

- Kichik mutaxassislarni kasbiy tayyorlash sifatiga boʻlgan talablarni optimallashtirish;
- Mutaxassislarni tayyorlash davlat taʼlim standartlari talabini rivojlangan mamlakatlar standartlari bilan uyqʻunlashtirish

Kasbiy bilim, koʻnikma va malakalarga qoʻyiladigan talablarni, kasbiy tayyorgarlini baholash mezonlari va nazorat turlarini belgilovchi meyoriy xujjat ishlab chiqish

Taʼlim tizimini standartlashtirish tamoyillari

- tizimlilik.
- ochiqlik
- uzluksizlik va uzviylik
- fan va texnika rivojlanish darajalarini hisobga olish
- ishlab chiqarish, fan va taʼlim integratsiyasi
- ilgarilash

*Davlat taʼlim standartlari (DTS)*- umumiy oʻrta, oʻrta maxsus, kasb-hunar va Oliy taʼlim mazmuniga hamda sifatiga qoʻyiladigan talablarni belgilaydi. DTS larini bajarish Oʻzbekiston respublikasining barcha taʼlim muassasalari uchun majburiydir.

Oliy taʼlimning Davlat taʼlim standarti (bundan keyin OTDTS) kadrlar tayyorlash sifatiga, taʼlim mazmuniga qoʻyilgan talablar; taʼlim oluvchilar tayyorgarligining zaruriy va yetarli taʼlim muassasalari bitiruvchilariga qoʻyilgan malakaviy talablar; oʻquv yuklamasining maksimal hajmi; taʼlim muassasalari faoliyati va kadrlar tayyorlash sifatini baholash tartiblari hamda yoʻl-yoʻriqlarini belgilaydi.

OT DTS oʻquv jarayonini tartibga soluvchi, taʼlim muassasalari faoliyati va kadrlar tayyorlash sifatini baholovchi meʼvoriy hujjatlar: bakalavriat taʼlim yoʻnalishlari, magistratura ixtisosliklari uchun DTS, oʻquv rejalari, oʻquv fanlari dasturlari va boshqalarni tayyorlash uchun asosdir.

Davlat taʼlim standarti funktsiyalari:

- *Progressiv rivojlanish funktsiyasi*--taʼlim tizimini progressiv va ketma ketlikdagi rivojlanishga, yangi sifatli taʼlimga yoʻnaltirish
- *Meʼyorlik funktsiyasi*-bajarish kerak boʻlgan meʼyorni belgilaydi
- *huquqiy funktsiya* -standartda buegilangan meʼyor asosida shaxs va ish beruvchi oʻrtasidagi xuquqlarni belgilash
- -ish joyida va jamiyatda moslashuvchanlikni taʼminlash;
- -taʼlim olish va davom ettirish va x.z.
- *Qiyosiy funktsiya*- taʼlim jarayoni natijalarini taqqoslash imkoniyatini taʼminlash
- *Kommunikativ funktsiya* - ijtimoiy xamkor, taʼlim soxasi vakillari, jamiyat oʻrtasida optimal davlat talablarini buegilash
- *Aks etish funktsiyasi* - kasbiy taʼlim sifatiga boʻlgan xaqiqiy talablarni aks etishi kerak. standar yuqori ilmiy amaliy darajada ishlab chiqilishi zarur.

*Kasb-hunar taʼlimi tarmoq standarti* – yoʻnalishlar boʻyicha kichik mutaxassislarni tayyorlashning zarur va yetarli mazmuni hamda pirovard maqsadlarini aniqlaydi, taʼlim oluvchilarning oʻquv yuklamalari hajmi va standart sifatleri nazoratini buegilab beradi.

Oliy taʼlimning birinchi bosqichida taʼlim dasturlari umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi bilan uzluksiz va uzviylik taʼminlanishini inobatga olgan holda ishlab chiqilishi va talabalarning quyidagi majburiy fanlar bloklarini oʻzlashtirishni nazarda tutishi zarur:

-gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy;

-matematika va tabiiy-ilmii;

-umum kasbiy;

-ixtisoslik;

-qo`shimcha;

Kasbiy faoliyat uchun zarur ko`nikma va malakalarni bakalavriat ta`lim dasturlari bilan uzluksizlik va uzviylik ta`minlanishini ko`zda tutib, ishlab chiqilishi va talabalar tomonidan quyidagi majburiy bloklar o`zlashtirilishini nazarda tutishi zarur:

-umummetodologik fanlar:

-mutaxassislik fanlari;

-ilmiy faoliyat.

Ta`lim- tarbiya jarayonini tashkil etishni rejalashtiruvchi, asosiy hujjat o`quv rejalari hisoblanadi. O`quv rejasi kasb-hunar ta`lim muassasalarida ta`lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishni, o`quv fanlarini alohida o`rganish sur`atini ta`minlovchi hujjat hisoblanadi.

O`quv rejasi – har bir yo`nalish uchun alohida tuzilib, vazirlik tomonidan tasdiqlanadi. Unda quyidagilar o`z ifodasini topadi:

1. Tayyorlov yo`nalish (ixtisoslik) kodi va uning nomlanishi.
2. O`qish muddati.
3. Tugatgandan so`ng olinadigan akademik darajasi.
4. Ta`lim shakli.
5. O`quv davrining taqsimoti (jadvali)
6. O`quv jarayonining rejasasi.
7. O`rganiladigan o`quv predmetlari.
8. Har bir o`quv predmetini o`rganish uchun ajratilgan umumiy vaqt miqdori.
- 1.1. O`rganish uchun ajratilgan vaqtni-ma`ruza amaliy mashg`ulot, laboratoriya ishlari, seminarlar, kurs loyihalari va mustaqil ta`limga qanday miqdorda taqsimlanganligi.
- 1.2. O`quv predmetini qaysi bosqich, semestrlarda haftasiga qancha soatdan o`rganish tartibi.
  2. Davlat attestatsiyasi.
  3. Tanlov fanlarining ro`yxati.
  4. Izohlar kabilar.

O`quv rejalari mazmuni va tuzilishiga mos holda quyidagi omillarga e`tiborni qaratmoq lozim:

- Ta`lim va tarbiyaning maqsadli yo`naltirilganligiga;
- Mehnat va ishlab chiqarish jarayonining tuzilishiga;
- Ta`lim- tarbiya jarayonining qonuniyatlariga.

O`quv rejalari ishlab chiqishda bo`lg`usi mutaxassislarda shakllantirilayotgan malaka mahoratlari darajasining o`rganilayotgan o`quv fanlari miqdoriga va o`rganish davriga aniq mos tushishini e`tiborga tutmoq lozim. Bo`lg`usi mutaxassislarning bilim va ko`nikmalarining shakllanishini, har bir fanni bosqichma-bosqich o`rganishlari chuqurligi, qulay va muqimligini ham nazarda tutishi kerak bo`ladi.

Dastur o`quv predmetining mazmuni, uni tahsil oluvchilar tomonidan o`zlashtirilishining eng maqbul usullari, tartibi, axborot manbalarini o`zida mujassamlashtiruvchi me`yoriy hujjatdir.

*O`quv dasturi* - shu nom bilan nomlangan o`quv predmetiga tegishli bo`ladi. O`quv predmeti – ta`lim muassasasida o`rganish uchun fan, texnika, san`at, ishlab chiqarish faoliyatining muayyan sohasidan tanlab olingan bilim, ko`nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar tizimidir.

Ta`lim standartlarida belgilab berilganidek umumiy va maxsus talablar, bilim va ko`nikmalar, o`quv rejalaridagi umumkasbiy va maxsus fanlarda o`zaro uzviyligini ta`minlash, fan dasturlarini zamon talablariga mos ravishda oddiydan murakkabga qarab tuzib chiqish, har bir fan dasturlarining mavzulariga mos ravishda qo`shimcha ko`rgazmali qurollar yaratish- o`qituvchilarga murakkab vazifalarni qo`yadi, talabalarning esa nazariy bilimlarini shakllantirib boradi. Kichik mutaxassislar tayyorlashga qo`yilgan talablarning xujjatli asosini tasvirlaydigan o`quv dasturlarida pedagogik maqsadlarning to`liq va aniq belgilanishi talab qilinadi. To`liqlik deganda mazmunning barcha zaruriy va qo`yilgan maqsadga erishish uchun yetarli elementlarni kiritish tushuniladi.

O`quv dasturiy hujjatlar tuzilmasi va mazmunini ishlab chiqish o`qitish jarauonini takomillashtirish va muehnat bozori talablariga javob bueradigan malakali kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega

*O`zingizni tuekshiring:*

1. O`rta mahsus, kasb-hunar ta`limi (O`MKHT) tushunchasga izoh bering.
2. O`MKHT rivojlanishi maqsadi nimadan iborat
3. O`MKHT rivojlanishi tamoyillarini sanab o`ting.
4. O`MKHT ta`lim muassasalari maqsad va vazifalari nimada.
5. O`rta maxsus kasb xunar ta`limi tizimga qaysi ta`lim muassasalari kiradi.
6. Nima uchun o`rta maxsus, kasb xunar ta`limi tizimi ixtiyoriy majburiy deyiladi?
7. Standart nima?
8. Nima uchun ta`lim tizimini standartlashtirish zaruriyati mavjud?
9. Davlat ta`lim standarti nima?
10. Tarmoq ta`lim standarti nima?

## Mavzu-6 Kasbiy ta'limning chet el tajribalari

1. Kasbiy ta'limning chet el tajribalari bilan aloqadorligi.
2. AQSH, Buyuk Britaniya, GFr, Fransiya, Italiya, YAponiya, hamdo'stlik mamlakatlarida kasbiy ta'lim.
3. Qiyosiy tahlil natijalari haqida bizning respublikada kasbiy ta'limning rivojlanish omillarini, o'ziga hosligini hisobga olingan hulosalari.

### 1. Amerika qo'shma SHtatlarida ta'lim tizimi

Amerika qo'shma SHtatlarida bolalar 6 yoshdan 17 yoshgacha 12 yil o'qiydilar. Ta'lim tizimi quyidagicha tashkil etilgan:

1. 3 yoshdan 5 yoshgacha maktabgacha tarbiya muassasalarida.
2. Boshlanich maktab. Bu bosqich 1—5-sinflarni o'z ichiga oladi.
3. To'liq bo'lmagan o'rta maktab. Bu bosqich 6—8-sinflardan iborat.
4. YUqori maktab. Bu bosqich 9—11-sinflar bo'ladi. Mazkur yuqori maktab bilan Oliy ta'limni aralastirmaslik kerak.

Amerika maktablarida 9-sinfgacha asosiy e'tibor matematikaga emas, balki tabiiy fanlarga qaratiladi, yuqorida tasdiqlangan yagona dasturlar bo'lmaydi. O'quvchilar uchun yagona, majburiy darsliklar, qo'llanmalar yo'q. Amerika maktablarida texnikaviy jihatdan yaxshi jihozlangan, sinflar komp'yuterlashtirilgan. Har bir maktabda boshlanich sinf o'quvchilarini tashiydigan maxsus avtobuslar, stadionlar, turli laboratoriyalar bor. Amerika maktablarining aksariyati davlat ixtiyorida bo'lib, davlat mablagi bilan ta'minlanadi. Lekin shaxsiy maktablar ham anchagina. Katta shaharlarda yashovchi o'ziga to'q ota-onalar farzandlarini shaxsiy maktablarga berishga urakat qilishadi. Davlat maktablarida tekin, shaxsiy maktablar esa pllik o'qitiladi. Vashington shahridagi shaxsiy manbada bolani o'qitish uchun bir yilga taxminan o'n ming dollar to'lash kerak. Bunday maktablarda boy oila farzandlari ta'lim oladilar. SHaxsiy maktablarning har biri o'zi xos xususiyatlarga, maxsus dasturlarga, maxsus o'qituvchilarga ega. Bunday maktablarda sinfda o'qiydigan o'quvchilar soni kam bo'ldai. SHaxsiy maktablarda boshlanish sinflardan boshlab estetik tarbiyaga, san'atga aloqida e'tibor beriladi.

Amerika davlat maktablarining yuqori sinflaridagi o'qish-o'qitish tizimi biznikidan tubdan farq qiladi. Yuqori sinflardagi har bir o'quvchiga alohida o'qituvchi-murabbiy biriktiriladi. U shu o'quvchining qobiliyati, qiziqishlarini sinchiklab o'rganib, faqat shu o'quvchiga mos aloqida reja tuzandi, uning o'qishiga raqbarlik qiladi. Amerikaning YUqori maktablarida shunday o'qituvchilar borki, ular kollejlarning birinchi kurslarida o'qitiladigan ma'lum fanlarda dars berishlari hamda imtihon olishlari shart. Amerika maktablarida bitirish imtihonlari yo'q. Oliy o'quv yurtlariga kirish uchun bizdagidek kirish imtihonlari olinmaydi. Biroq har bir abituriyent oliy o'quv yurtiga kirish uchun matematika va ingliz tilidan sinov (test) topshiradi. Bunday testlar Amerikada har yili 3—4 marta o'tkaziladi. Sinov savollari kitob shaklida har yili chop etiladi. Ularda mingga yaqin mashqlar, masalalar va ularning echimlari ko'rsatiladi. Sinflarda qanday savollar bo'lishi bizga o'xshab sir tutilmaydi, balki ochiq-oydin «matematika va ingliz tilidan bu yil mana shu savollarga javob berish lozim» deb ko'rsatiladi. O'quvchilar bu kitobni olib, kirish sinovlariga tayyorlanadi.

Amerikada talabalar matematika va ingliz tilidan kirish sinovlarini 10-12 sinflarda o`qib yurgan vaqtlarida, o`zlariga qulay paytda topshira oladilar.

Amerika oliy o`quv yurtlariga kirish uchun belgilangan sinov (test)lar ikki xil bo`ladi:

SAT (Sxolastik aptityud test);

AKT (Amerikan kollej test) sinovlari.

SAT sinovlari murakkabroq bo`ladi. Mashhur universitetlarga kirish uchun SAT sinovlarini topshirish shart bo`ladi.

Ikkinchi bosqich oliy ma`lumot beruvchi o`quv yurtlari bizning aspiranturaga to`ri keladi. Bu o`quv yurtiga kirish uchun ikki fandan imtihon topshirilishi shart. O`qishni muvaffaqiyatli bitirgan talaba magistrlik darajasini oladi. Magistrlik ilmiy darajasini olgan talaba doktoranturaga kirishi mumkin. Amerikada doktoranturaga kirish uchun faqat mutaxassislikdan jiddiy imtihon topshiriladi. Imtihon komissiyasi tarkibida talabaning bo`lajak ilmiy raqbari ham ishtirok etadi. O`qishni muvaffaqiyatli bitirib, dissertatsiya yoqlagan talaba doktorlik ilmiy darajasini oladi. Ijtimoiy fanlardan doktorlik dissertatsiyasi yoqlagan talabalarning uqmmasiga «falsafa doktori» ilmiy unvoni beriladi. AqSH maktablari — oliy maktabgacha mana shunday bosqichlarga ega.

#### Yaponiyada ta`lim tizimi

YAponiya ta`limining shakllanishi 1867—1868 yillarda boshlangan. YAponiya o`z oldiga ikki vazifani: 1—boyish, 2-arb texnologiyasini YAponiya ishlab chiqarishiga kiritish masalasini qo`yadi va bu ishni amalga oshirish uchun birinchi galda ta`lim tizimini tubdan o`zgartirish kerakligi aytiladi.

1872 yili «Ta`lim uqaqida qonun» qabul qilindi. Bunda yapon ta`limi arb ta`limi bilan uy\unlashtiriladi. 1908 yil YAponiyada boshlanich ta`lim majburiy 6 yillikka aylantirildi. 1893 yili kasb yo`nalishidagi dastlabki kollej paydo bo`ldi.

1946 yili qabul qilingan Konstitutsiya fuqarolarning ta`lim soqasidagi uquq va burchlarini belgilab berdi. Unda barcha bolalar bepul umumiy ta`lim olishlari shart ekanligi belgilab qo`yilgan. hozirgi zamon yapon ta`lim tizimlarining tarkibi quyidagicha: bochalar, boshlanich maktab, kichik o`rta maktab, yuqori o`rta maktab, oliy ta`lim tizimlariga kiruvchi o`quv yurtlari. Bolalar yosh xususiyatlariga qarab 3, 2, 1 yillik ta`lim kurslariga jalb qilinadi. YAponiyada maktabgacha ta`lim muassasalarining 59,9% xususiy, 40,8% munitsipal, 0,3% davlatnikidir.

Majburiy ta`lim. Ta`limning po`onasi 6 yoshdan 15 yoshgacha bo`lgan bolalarni o`z ichiga oladi. 6 yillik boshlanich ta`lim va 3 yillik kichik o`rta maktab, 9 yillik majburiy ta`limni tashkil etadi va u bepuldir, tekin darsliklar bilan ta`minlangan Muxtoj oilalarning bolalari bepul nonushta, o`quv qurollari, tibbiy xizmat bilan ta`minlanadi. Zarur bo`lgan taqdirida ularning oilalariga moddiy yordam ko`rsatiladi. SHu qatorda xususiy maktablar uqam mavjud.

Yuqori bosqich o`rta maktab 10, 11, 12 sniflarni o`z ichiga oladi, bunday maktablarning kunduzgi, sirtqi va kechki bo`limlari mavjud. O`quvchilarning 95% kunduzgi maktablarda o`qiydilar.

Yaponiyada o`quv yili 240 kun (AqSH 180). O`quv yili 1 apreldan boshlanib martda tugaydi. Yozgi kanikul iyun oyining oxirida boshlanib, avgustda tugaydi. Darslar 7 soatdan o`tiladi.

Dorilfununlarga katta o`rta maktabni yoki 12 yillik oddiy maktabni tugatgan o`quvchilar qabul qilinadi. U erda 460 ta universitet bo`lib, 95 tasi davlat tasarrufida, 34 tasi munitsipal, 331 tasi xususiy, 1-toifadagi universitetlarda har bir o`qituvchiga 8 nafar, 2-toifali universitetlarda esa 20 tadan talaba tog`ri keladi. Universitetlarga qabul qilish ikki bosqichga bo`linadi: 1-bosqichi turar joyda o`tkaziladi: buning uchun yapon, eski yapon tili, matematika, fizika, ximiya, jamiyatshunoslik, tarix bo`yicha test sinovlaridan o`tadilar.

Bu sinovlardan o`tgan o`quvchilar universitetlarga yo`llanma oladilar va yana sinovdan o`tadilar. Xususiy universitetlarga esa to`ridan-to`ri test topshiriladi. Bir qator xususiy universitetlar o`zining uzluksiz shaxobchasiga esa (bochadan boshlab hamma bosqichlarni qamrab oladi). Universitetdan talabalarni haydab yuborish mumkin emas. Lekin o`qish muddatini cho`zish mumkin (4 yillik o`qish 5-6 yilgacha cho`zilib ketishi mumkin).

Kollejlar:

1-kichik kollej;

2-texnik kollej

3-maxsus kollejlarga bo`linadi.

Uni bitirgan talabalar bakalavr diplomini oladi va universitetning 3 yoki 4 kurslariga qabul qiliadi.

#### Janubiy Koreyada ta`lim tizimi

Janubiy Koreyada ta`lim ma`qadagi qonun 1948 yilda qabul qilingan. Ta`lim tizimiga asos qilib an`anaviy arb modeli olingan: 6 yil — quyi maktab, 3 yil — o`rta, yana 3 yil — oliy maktab; so`ngra to`rt yillik kollej va bakalavr unvoni beriladi; talangan fan yana 2 yil chuqur o`rganilgandan so`ng magistr unvonini olish mumkin. Fan doktori bo`lish uchun yana 3 yil vaqt sarflash lozim.

Mamlakatda oliy o`quv yurtlarining ishlari yaxshi yo`lga qo`yilgan. Koreyada 104 ta oliy o`quv yurti bor, ularning 80 foizi xususiydir. Hozir mamlakatda oliy o`quv yurtlarida o`qishga qiziqish juda kuchayib ketgan. Har yili maktablarni bitiruvchilarning 40 foizi o`qishga kiradi. Talabalar soni bo`yicha Koreya dunyoda birinchi o`rinda turadi. Lekin maktabgacha ta`lim muassasalari ishida muammolar bor. Talab ehtiyojini qondira olmayapti. SHuning uchun 1982 yilda maktabgacha tarbiya ma`qada qonun qabul qilindi. Bu erda tarbiyaga bolalar bog`chasida asos solinishini yaxshi tushunishadi. SHu tufayli bu tarmoq keyingi yillarda 60 foizga kengaydi. Bunda diniy tashkilotlarning mi`ssasi kattadir.

Boshlang`ich maktab masalasiga kelganda (bu maktabga olti yoshlilar kelishadi) sinflarning tig`izligini kuzatish mumkin. Har sinfda 50 nafargacha bola o`qiydi. Dars nagruzkalari ham ko`proq. Lekin o`yinlar dam olish o`quv dasturiga kiritilgan. SHuning uchun dam olishga imkoniyat bor.

Koreyada nogironlarga ko`rsatilayotgan g`amxo`rlikni har qadamda kuzatish mumkin. Aytaylik, bu erda aravachalar yordamida harakatlanuvchilar uchun er osti liftlari mavjud, maxsus jihozlangan past qilib qurilgan telefon-avtomatlardan nogironlar bemalol foydalanadilar, rivojlanishdan orqada qolgan bolalar uchun maxsus maktablar mavjud. Bu maktablarning aksariyati xususiy yoki diniy tashkilotlarning xayriya mablag`lari hisobiga qurilgan. Davlat maktablarida din o`qitilmaydi. Lekin 3-sinfdan boshlab «Odobnoma» kabi maxsus fan joriy etiladi. Bu fan 12-sinfgacha o`qitilib, haftasiga 2 soat vaqt ajratilgan.

Bu fan o`z ichiga dinni ham qabul qiladi. U qotib qolgan bir narsa sifatida emas, qadriyat sifatida o`qitiladi. Bu butun tarbiya tizimi natijasidir. Ehromlarga borish, tarixiy

yodgorliklar bilan tanishish, ma'naviy tarixni o'rganish maktab fanining majburiy davomi hisoblanadi.

Maktablar uchun o'qituvchi kadrlar tayyorlash masalasiga ham katta e'tibor beriladi. Koreyadagi barcha talabalarning 6,5 foizi bo'lajak pedagoglardir. Mamlakatda 11 ta o'qituvchilar kollejlari mavjud. Har bir provintsiya o'z kollejiga ega. Boshlang'ich sinflar o'qituvchisi bo'lish uchun 2 yil o'qish kerak. Fan o'qituvchisi birmuncha ko'proq o'qiydi.

Koreyada o'qituvchining ish haqi 700 dollarga teng. Agar bunga pedagogika oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirishdagi yuqori tanlovni ham qo'shadigan bo'lsak, bu mamlakatda o'qituvchi kasbining e'zozlanishi sabablari ayondir.

Janubiy Koreyada ta'limning obro'si naqadar kattalagini quyidagi misoldan ham ko'rsak bo'ladi:

Soliqlar tizimida ta'limiy soliq joriy qilingan: ishlab chiqaruvchilar foydaning ma'lum foizini maorifga yuboradilar. Davlat byudjetining 24 foizi ta'limga sarflanadi. Mamlakat prezidenti (u xalq ta'limi Davlat kengashini boshqaradi) shaxsan provintsiyalar ta'lim boshqarmalari (bizdagi xalq ta'limi boshqarmalari kabi) boshliqlarini tayinlaydi. Bu ham ushbu mamlakatda maorifga qanchalar zo'r ahamiyat berilishini ko'rsatib turibdi.

### Frantsiyada ta'lim tizimi

Frantsiya ta'lim tizimi ham qadimiy va boy tarixga ega. Bu mamlakatda «Ta'lim haqida»gi qonun dastlab 1955 yilda qabul qilinib, 1975 yilda unga qator o'zgartirishlar kiritilgan.

Frantsiya davlatining hozirgi davrda amal qilinayotgan «Ta'lim haqida»gi qonuni 1989 yil 10 iyulda qabul qilingan bo'lib, uning o'zgartirilishiga ta'lim strategiyasida ro'y bergan o'zgarishlar, mamlakatning ichki, tashqi siyosatdagi islohatlar, yuzaga kelgan iqtisodiy sharoitlar, chet el pedagogikasidagi ilor tajribalarning mamlakat ta'lim tizimlariga kirib kelishi, o'quv predmetlarining integratsiyalari va boshqalar sabab bo'ldi.

Frantsiyada ta'limning asosiy maqsadi shaxsning har tomonlama kamol topishini ta'minlash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash, bozor munosabatlari sharoitida o'quvchilarni tadbirkorlikka, ishbiarmonlik va omilkorlikka o'rgatish, shunga yarasha kasb-korga ega qilishdan iboratdir. Bu erda:

1. Davlat maktablari;
2. Xususiy maktablar;
3. Oraliq maktablari mavjud.

O'qitiladigan predmetlar ichida frantsuz tili va adabiyoti, o'qish va yozuv alohida ahamiyatga molik bo'lib hisoblanadi. Ular uchun dars vaqtining 30% ajratiladi. O'rtacha haftalik soatlar 26 soatdan iborat, darsning davomiyligi esa 60 minut. O'quv yili 5 chorakka bo'linadi. Frantsuz maktablari boshlang'ich sinflarida o'qish ertalabki va tushdan keyingi qismlarga bo'linadi. Ertalab o'quvchilar ona tilidan, tushdan keyin esa matematika va boshqa predmetlardan saboq oladilar. Matematika, ona tili va adabiyoti baza predmeti, tarix, geografiya, mehnat, jismoniy tarbiya predmetlari esa rivojlantiruvchi predmetlar hisoblanadi.

Oliy ta'lim universitetlarda uch turkumda amalga oshiriladi.

Birinchi turkum: umumiy bo'lib, o'qish muddati ikki yil davom etadi.

Ikkinchi turkum: o'qish bir yil davom etadi. Talabalar uni magistr darajasi bilan yakunlaydi.

Uchinchi turkum: o'qish 1—2 yil davom etadi. Bu tsiklda:

- biron bir predmetni chuqurlashtirib o`rganilganligi haqida diplom 1 yil;
- ixtisoslashtirilgan oliy ma`lumot to`g`risida diplom 1-yil;
- uchinchi turkum doktorlik dissertatsiyasi 1—2 yil;
- davlat doktorlik dissertatsiyasi biron-bir sohani mukammal o`rganib dissertatsiya yozish kabi muvajatlar olish mumkin.

Frantsiyada oliy ma`lumot va ixtisos beruvchi oliy texnologik institutlar mingdan ortiq. Ular odatda sanoat, maishiy xizmat ko`rsatish, informatika mutaxassisliklariga ixtisoslashgan. O`qish muddati 2 yil bo`lib, sakkiz xaftalik ishlab chiqarish amaliyotini ham ko`zda tutadi.

Sirtqi ta`lim shoxobchalari juda keng bo`lib, u 500 turdagi o`rta, oliy professional ma`lumot berishni tavsiya eta oladi.

### Germaniyada ta`lim tizimi

Maktabgacha tarbiya tizimi Germaniya ta`lim tizimida uam muhim bosqich hisoblanadi. Uning 100 yildan ortiq tarixi bor. Bolalar bog`chalari ta`limning quyi bosqichi hisoblansada, lekin u davlat tizimi tarkibiga kirmaydi. Bog`chalarni mablag` bilan ta`minlash turli jamoat tashkilotlari, uayriya birlashmalari, korxonalar, xususiy shaxslar, diniy muassasalar zimmasidadir. Ota-onalar bolalar bog`chalariga o`z farzandlarini tarbiyalayotganliklari uchun ancha miqdorda pul to`laydilar. 3 yoshdan 6 yoshgacha bolalarning 80% bog`chalarga qatnaydi. Germaniyada odatda bolalar bog`chada tushgacha tarbiyalanadilar. Kunning yarmida esa uyda, oilada bo`ladilar. Germaniyada kuni uzaytirilgan bog`chalar ham bor.

Majburiy ta`lim 6 yoshdan 18 yoshgacha bo`lgan bolalarga tegishli, ya`ni bu jarayon 12 yil davom etadi. Bundan 9 yillik (ba`zi joylarda 10 yil) maktabda to`la xaftalik o`qishda o`qiydi. O`qish davlat maktablarida tekin. Xususiy maktablar ozroq. O`qish 6 yoshdan boshlanib, 4 yil davom etadi (faqat Berlinda 6 yil). Boshlan`ich maktabdan so`ng o`quvchilar yo`nalish bosqichidagi maktabga o`tadilar. Bu erda 5-6 sinf bosqichidagi yo`nalish maktablarda maxsus dastur asosida o`qiydilar. Keyin navbatdagi maktab tipiga ko`chadilar: bular — asosiy, maxsus maktab, real bilim yurtlari. Deyarli 30% bola asosiy maktabga o`tadi. 9 yoki 10 yillik o`qish tugatilgandan keyin kasbiy tayyorgarlikka o`tiladi. Maxsus maktablarda nuqsonga ega bo`lgan bolalar o`qiydi. real bilim yurtlari asosiy maktab va yuqori bosqich maktabi o`rtasida turadi. qoidaga ko`ra bu erda o`qish 6 yil davom etadi (5-10 sinfgacha) va to`la o`rta ma`lumot berish bilan tugallanadi. Bilim yurtini tugatganlar o`rta maxsus o`quv yurtiga yoki yuqori bosqichdagi hunar-texnika maktabiga kirib o`qish huquqiga ega bo`ladi.

Oliy maktab o`z-o`zini boshqarish muquqiga ega. Oliy o`quv yurtini shtatdagi rektor yoki bir necha yilga saylangan Prezident boshqaradi. O`z-o`zini boshqarishda vazifalari aniq taqsimlab berilgan bir necha guruuqlar bosqichma-bosqich ishtiroki printsiyiga amal qilinadi. Uning tarkibiga professor-o`qituvchilar, o`quvchilar, ilmiy xodimlar va boshqa xodimlar kiradi. Talabalar o`qishi erkin tashkil etilgan. Ko`p sonli o`quv bosqichlari bilan birga o`quv rejalari taklif etiladi. O`qishga haq to`lanmaydi. Agar talaba yoki ularning ota-onalari oziq-ovqat harajatlarini ko`tara olmasa o`qish uchun moliyaviy yordam ko`rsatish to`g`risidagi federal qonunga ko`ra ular moliya yordamida oladilar. Bu yordamning yarmi stipendiyaga qo`shib berilsa, ikkinchi yarimi qarz tariqasida beriladi.

Mamlakatda ta`limning isloh qilish masalasi ko`pdan buyon muuokama qilinmoqda, bunda o`quv jarayonini qisqartirish taklif qilinmoqda. Hozir universitetlarda talabalar 7 yil o`qiydi. Ular o`qishga kirganlariga qadar korxonalarda bir necha yil ishlashlari yoki bundesverda xizmat qilishni muisobga olsak, talabalar haqiqiy mehnat faoliyatlarini ancha kech boshlayotganligini tushunamiz.

Germaniyada Xalq universitetlari mavjud bo`lib, ular partiya va dindan tashqari muassasa. Ularning ko`pchiligi kechki bo`lib, faqat 1989 yilda universitetlarda 400000 kurslar tashkil etilgan va bu kurslarda, 5,5 mln. tinglovchi malaka oshirgan. Davlat malaka oshirganlarni

raʼbatlantiradi va bu uchun har yili 5,5 mln. marka mablagʻ ajratadi. Malaka oshirish kurslarida oʻqish davrida tinglovchilarga mablagʻ bilan moliyaviy yordam beradilar. Asosan ishsizlar oʻz malakasini oshirish imkoniyatlaridan koʻproq foydalanadilar va bu bilan ish topishlari tezlashadi. YArim yil davomida malaka oshirgan ishchilarning 75% ish bilan taʼminlanadi. Cherkovlar ham fuqarolarning bilim darajalarini oshirishda faol ishtirok etadi. Yevangelʼ cherkovi oʻzining 15 akademiyasida dolzarb mavzular boʻyicha konferentsiyalar tashkil etadi.

Katoliklar malaka oshirishda nikoh, oila masalalariga, teologiya va madaniyat sohalariga katta ahamiyat beradilar.

Oliy oʻquv yurtlarida tadqiqot bilan shugʻullanish ularning qadimiy anʼanalaridan biri. Oʻtgan asr boshlarida Vilʼgelʼm fon Gumbolʼdt pruss universitetlarini isloh qildi, oʻshandan beri «Tadqiqot va oʻqitish birligi» ularning hayotiy printsiplariga aylanib qolgan. Oliy oʻquv yurtlari tadqiqotlarining asosiy yoʻnalishi-fundamental amaliy tadqiqot boʻlib, ularga boshqa ilmiy-tekshirish institutlari, sanoat laboratoriyalari yaqindan yordam beradi. Germaniya taʼlimi oʻziga xos yoʻnalishga, juda murakkab tizimga ega. SHu bilan bir qatorda hozirda Germaniyada taʼlim tizimini isloh etish yoʻlida yangi izlanishlar olib borilmoqda.

Oʻzingizni tekshiring:

1. rivojlangan xorijiy davlatlarda taʼlim yoʻnalishlari qanday belgilangan?
2. AqSHda taʼlim tizimi qanday tashkil etilgan?
3. YAponiya taʼlim tizimi haqida gapirib bering.
4. Janubiy Koreyada taʼlim tizimi qanday tashkil etilgan?
5. Frantsiyadagi taʼlim tizimini soʻzlab bering.
6. Germaniya taʼlim tizimi qanday tashkil etilgan?
7. Oʻzbekistonda xorijiy mamlakatlar tajribasidan qanday foydalanish mumkin?

## **Mavzu-7 Kasbiy ta'lim shakllari, metodlari, tamoyillari. Kasbiy tarbiya.**

### **Reja:**

1. Ta'limning asosiy shakllari, tamoyillari hamda metodlari.
2. Tarbiya metodlari xaqidagi bilimlarni amalda qo'llay olish.
3. Kasb-hunar ta'limi mazmunini belgilovchi me'yoriy hujjatlar. Blok-modul o'qitishning metodik asoslarini amalda qo'llash.
4. O'qitish texnologiyasi – amaliy pedagogik fan sifatida. Faoliyatga yo'nalgan o'qitish metodlarini texnologik ta'minlash protseduralari.

1. O'qitish tamoyillari-o'qitish nazariyasining boshlang'ich qoidalari bo'lib, o'qituvchi o'quv jarayonini tashkil etishda ularga amal qilishi kerak.

Kasb ta'limi tamoyillarini tizimlashtirishga bo'lgan yondashishlarda quyidagicha fikrlar bildirilgan.

M.n.Skatkin ta'lim tamoyillarini quyidagicha belgilaydi: ilmiylik, har tomonlamalik, hayot bilan aloqadorlik, tabaqalashtirish, tizimlilik, o'quv fanlari orasidagi o'zaro aloqadorlik, tabaqalashtirish, tizimlilik, joriylilik.


M.G.Ogorodnikov esa o'z tadqiqotlarida ilmiylilik, g'oyaviylik, tarixiyik, tizimlilik, nazariya va amaliuotning birligi, ta'limning hayot bilan aloqasi kabi ta'riflarni asosiy sifatida tamoyillarini ajratadi.

S.YA.Batishev-kasb ta'limi mazmunini ishlab chiqarish va mehnat jarayoni rivojlanishi bilan uzviy bog'langan holda tasavvur etish kerak deb hisoblaydi va ta'limning quyidagi tamoyillarini belgilaydi: ilmiylik, tizimlilik va joriylilik, amaliy ta'lim bilan ishlab chiqarish mehnatining birligi .

A.P.Belyaeva ta'limda haqchillilik, ilmiylik, polituexnikaviylik, tizimlilik, muqobillilik, politexnik va kasbiy ta'limning birligi hamda o'zaro aloqasi; fanlararo va majmuaviy o'zaro aloqadorlik, kasbiy safarbarlik, ta'limning egiluvchanligi va turg'unligi, mujassamlangan ham tabaqalashganligini ta'limning asosiy tamoyillari sifatida talqin etadi.

O'qitish tamoyillarining majmuasi mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- faollik tamoyili;
- o'qitishda nazariya bilan amaliuotning bog'liqligi tamoyili;
- ko'rsatmalilik tamoyili;
- o'qitishning tarbiyalovchi xarakteri tamoyili;
- ilmiylik tamoyili;
- o'qitishda sistemalilik va izchillik tamoyili;
- o'qitishning tushunarli bo'lishi tamoyili;
- namunalardan foydalanish tamoyili;
- talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olish tamoyili;
- bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishning puxta bo'lishi tamoyili;
- didaktik reduksiya tamoyili;



*Ta`lim berish metodlari* deganda pedagogning ish usullarini tushunmoq kerak.

O`qitish jarayoni murakkab va ko`p qirrali bo`lib, nihoyatda xilma-xil va turli xarakterdagi faktorlarga boq`liq. O`qituvchi o`qitish metodlarining bitmas tuganmas xazinasiga ega. O`qitish metodlarini har xil klassifikatsiyalarini tahlil qilmay, ularning ba`zilarini keltirib o`tamiz.

1. O`qitishda talabning harakatlari xarakteristikasiga ko`ra:

- a) Faol metodlar
- b) Passiv metodlar

2. O`quv ishining turlariga qarab:

- a) bilimlarni o`zlashtirishning dastlabki metodi;
- b) bilimlarni takomillashtirish metodi;
- v) Bilimlarni tekshirib ko`rish va baholash metodi;

3. Bilim manbalariga qarab:

- a) Oq`zaki metodlar;
- b) Ko`rgazmali metodlar;
- v) Amaliy metodlar.

O`qitish metodlari o`quv jarayonining amalga oshirish ya`ni o`qitish va o`qish usullari bo`lganligidan, har bir metodni ikki tomondan o`qituvchi faoliyati va talabalar faoliyati nuqtai nazaridan qarash kerak. Shuning uchun ham o`qitish metodini bilim manbalari bo`yicha quyidagicha guruhlaymiz.

| Oq`zaki metodlar   | Ko`rsatmali metodlar  | Amaliy metodlar  |
|--|---|--|
| <p>A) Suhbat<br/>Maqsadni tushuntirish talabalarga muammoli savol berish,talabalarining javoblarini muhokama qilish.</p> <p>B)O`quv adabiuoti bilan mustaqil ishlash.<br/>Maqsadni tushuntirish.Topshiriqning mazmuni va Talabalarining ish tartibini aniqlash,talabalar ishiga rahbarlik qilish,yakun yasash.</p> <p>V)Ovoz yozishdan va radio,televizioniuedan multimedia resurslaridan foydalanish.<br/>Maqsadni tushuntirish kompyutuer, tuexnika va multimedia vositalarini boshqarish.Talabalarni idrok etishiga rahbarlik qilish va yakun yasash.</p> | <p>A)Ko`rgazmali o`quv adabiuotlari rasmlar va sxemalarni, videotasvirlar, Multimediyalar, tajribaviy mehnat usullarini namoyish qilish.<br/>Maqsadni tushuntirish Topshiriqni aniqlash Tuexnika vositalarini boshqarish,tajribalarni amalda ko`rsatish</p> <p>B)Talabalarining ob`uakt va jarauonning mustaqil kuzatishlari.<br/>Maqsadni tushuntirish kuzatish ob`ueklarini aniqlash talabalarining kuzatishlariga rahbarlik qilish,yakun yasash.</p> | <p>A)Laboratoriya va amaliy ishlar<br/>Maqsadni tushuntirish ,talabalar ishini tartibini va mazmunini aniqlash hamda rahbarlik qilish.Yakun yasash.</p> <p>B)Mashqlar.<br/>Maqsadni tushuntirish,talabalar ishini tartibini va mazmunini tushuntirish,yakun yasash.</p> <p>V)Talabalarining ijodiy ishlari.<br/>Maqsadni tushuntirish,muammo qo`yish, talabalar ishiga rahbarlik qilish va yakun yasash.</p> |

*Oq`zaki metodlar.* Agar talabalar asosiy o`quv axborotini o`qituvchining o`quv mulohazalari va isbotlari jarauonida uoki darslik mavzulari asosida olsalar, bunday metodlar Oq`zaki metodlar jumlasiga kiradi.(tushuntirish, hikoya, suhbat, va h.o.).

Oq`zaki metodlardan foydalanish jarayonida ko`rgazmali qurollardan foydalanish mumkin. Ammo ular yordamchi rol o`ynaydilar.

Bayon darsda ko`rgazmali vositalardan foydalanish yoki foydalanmasligiga boq`liq bo`lmagan holda tuziladi. Masalan, o`qituvchi tikuv mashinasining tuzilishini va ishlash tartibini tushuntirayotganda kinematik sxemadan foydalanish mumkin. Lekin isbot mantiqini kinematik sxuema belgilamaydi,balki u tushunchani o`zlashtirishda yordam beradi xolos.

Oq`zaki metodlardan foydalanish muvaffaqiyatining asosiy ko`rsatkichlari-talabalarining yangi bilimlarni eslab qolishlari va aytib bera olishlaridir. Oq`zaki metodlarda talabalar o`qituvchi mulohazalari jarayonini takrorlaydilar, unga taqlid qiladilar.

Talaba o`qituvchining tushuntirish mantiqiga qanchalik yaqinlashsa, matuerialni shunchalik muvaffaqiyatliroq o`zlashtiradi.

Oq`zaki muetodlardan asosan yangi matuerialni o`rganish paytida foydalaniladi va bilimlarni egallashning boshqa usullari bilan qo`shib olib borilsagina ular ta`limda yaxshi samara beradi.

*Ko`rgazmali metodlar* deganda ta`lim jarauonida qo`llaniladigan ko`rgazmali qurollar va texnika vositalariga ko`p darajada boq`liq bo`lgan o`quv materialini o`zlashtirish formalari tushuniladi.

Ta`limning kurgazmali vositalari bilimlarni o`rganish va o`zlashtirish xarakterini belgilaydi. Masalan, tikuv mashinasi duetallari namunalari ko`rsatilishi mexanizmlarining ishlashi virtual uoki moduel orqali uoki tikuv mashinasida bajariladigan texnologik jarayon videotasviri namoyish qilinishi mumkin, deydik.

Asosiy maqsad dars mazmuni, albatta. O`qituvchi esa qo`shimcha tuzatish kiritishi mumkin xolos.

Ta`limning bunday metodlaridan foydalanilganda talabalarning bilish faoliyati ko`rgazmali vositalar uordamida shakllanadigan uoki esga tushiradigan hissiy obrazlarga, tasavvurlarga boq`liq bo`ladi. Ko`rgazmali qurollar bilimlarni sistemaga solish va boyitishda, shuningdek talabalarning fikr yuritish faoliyatini aktivlashtirishda yordam beradi.

Ta`limning ko`rgazmali metodlari talabalarning bilim faoliyatida obrazli va mantiqiy, konkrut va abstrakt, hissiy va aqliy jihatlarining nisbatini chuqur tushunishni talab etadi.

*Amaliy metodlar.* Mashqlar, mustaqil topshiriqlar, amaliy va tajriba ishlari asosida o`quv materialini egallash formalari ta`limning amaliy metodlari jumlasiga kiradi. Ana shu metodlar yordamida amaliy ko`nikma va malakalar shakllantiriladi. Bunda ko`nikmani shakllantirish jarayoni o`quv faoliyatida hal qiluvchi rolb o`ynaydi. Ko`nikmalarni egallashning muvaffaqiyati uni shakllantirish sharoitiga boq`liq.

Birinchi shart-ko`nikma nima maqsadda shakllantirilishini anglashdir. Har qanday ko`nikma-avtomatlashgan darajaga uetkazilgan harakatlar sistemasidir. Agar talaba o`quv materialini o`zlashtirishda ularning ahamiyatini tushunmasa, bu harakatlarni shakllantirish qiyin buladi. Masalan: tikuv mashinasi kiyimni qaysi qismlarini tikishga mo`ljallanganligini va buning uchun kiyim materialiga mos ravishda ip va ignalar tanlanishi tartibini bilmasa, shu ishlarni bajarishdagi harakatlarini shakllashtirish qiyin bo`ladi.

Ikkinchi shart-mashqlarning sistemali bo`lishi. Odatda ko`nikmalarni egallashdagi kamchiliklarga o`quv mashqlari sistemasini tashkil etish va o`tkazishdagi kamchiliklar sabab bo`ladi, ya`ni mashqlarni o`tkazish uchun kerakli vositalar bilan ta`minlanmaganligi.

Uchinchi shart-amaliy harakatlarni anglagan holda bajarish. Talabalar harakatlarning muayyan fikriy ruejasiga asoslanishlari, ish jarauonlarining izchilligini yaxshi tushunishlari, mexanik tarzda takrorlashga va yodlab olishga yo`l qo`ymaslik kuerak.

To`rtinchi shart-dastlabki amaliy harakatlar va jarayonlarga puxta tayuorlanish. Ular ongli ravishda reja asosida bajarilsa, ko`nikma tezroq muvaffaqiyatliroq shakllanadi. Buning uchun talabalar nazariy bilimlarini yaxshi egallashlari kerak.

Beshinchi shart-mashqlarni mustaqil bajarish va o`zini-o`zi nazorat qilish. Talaba ko`nikmani mustaqil bajara boshlaganida u o`z harakatlarini nazorat qiladi. O`qituvchi talabaga o`z-o`zini nazorat qilish usullarini o`rgatishi zarur. Masalan, talaba kiyimni birona duetaliga bezak berish jarayonini amaliy o`rgangandan keyin, uyda o`zi mustaqil ravishda bajarishga va baho berishga o`rganadi.

Oltinchi shart-bajarilgan mashqlar, amaliy ishlar tahlili va ularni baholash. O`quv ko`nikmalari va malakalarida ijobiy va salbiy jihatlar bo`ladi. Talabalar yo`l qo`yadigan tipik xatolar namoyon bo`ladi. Luekin sinfdagi yaxshi ishlarni namoyish qilish kuerak. Ijobiy na`muna asosida o`qitish afzalroqdir.

Agar ko`nikmani shakllantirish shartlariga rioya qilinsa, o`qitishning amaliy metodlari o`quv materialining muvaffaqiyatli egallanishiga olib keladi.

Faol o`qitish metodlari.

Kueyingi yillarda puedagogika fani va amaliyotida ta`lim oluvchilarning mustaqil ishlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hamda faollashtirishga yo`naltirilgan faol metodlarini ishlab chiqish va ulardan foydalanishga katta e`tibor qaratilayapti.

O`qitishda eng samarali metodlaridan biri bu muammoli o`qitishdir.

Muammoli o`qitish deganda mashq`ulotlarda pedagog tomondan yaratiladigan vaziyatlar va ularni uechishga qaratilgan talabalarning faol mustaqil faoliyati tushuniladi. Buning natijasida talabalar kasbiy bilim va ko`nikmalarga ega bo`ladilar va fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.

Albatta talabalarning darslarga qanchalik darajada faol qatnashish yoki qatnashmasligi talabaga juda boq`liq. Lekin bunda o`qituvchi tayyor bilimni talabalarga berib qoladi xolos. Umuman olganda talabalarning aktivligi sezilarli darajada emas. SHuning uchun ham o`qituvchi tomonidan qo`llaniladigan har qanday urinish yetarli darajada samara bermasligi mumkin. Bunday holatda qanday yo`l tutish mumkin. Albatta o`qitish jarayonida juda ko`p usullarni qo`llash mumkin. Lekin darslarni muammoli qilib o`tish ana shu yuqorida aytilgan kamchiliklardan xolis bo`lishi mumkin. Bunda har bir talaba darsning mohiyatini tushunib olishi va uni oldida ma`lum bir muammo o`qituvchi tomonidan qo`yilishi kuerak. Bu qo`yilgan muammoning qanchalik darajada talabalarga ijodiy intilishni uyq`otishi albatta muammoning xaraktueriga boq`liq. Bunda har bir talaba o`z oldida turgan muammoni bila turib uni ijobiy uechishga harakat qilishi kerak. O`qituvchi esa bu jarayonni kuzatib borib, tegishli maslahat va yo`nalishlarni ko`rsatishi kuerak.

Hozirgi zamonaviy darslarning eng xarakterli tomoni ham shundadir. Muammoli o`qitishni boshqarish pedagogik mahoratni talab etadi, chunki muammoli vaziyatning paydo bo`lish - individual holat bo`lib, tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan yondashuvni talab etadi.

Muammoli darslarning yana bir xarakterli tomoni shundaki, bu metodni qo`llash bilan faqatgina talabalar bilimini o`stiribgina qolmay, balki talabalarda shu fanga qiziqish uyq`onadi.

Pedagog muammoli vaziyat yaratadi, talabani uni yechishga yo`naltiradi, yechimni izlashni tashkil etadi. Muammoli o`qitishni boshqarish, pedagogik mahoratni talab etadi, chunki muammoli vaziyatning paydo bo`lishi - individual holat bo`lib, tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan yondashuvni talab etadi.

Muammoli vaziyat yaratishning uslubiy yo`llari quyidagilar:

- qarama-qarshiliklarga olib kelinadi va talabalar o`zlariga yechim yo`llarini izlash taklif etiladi;

- ishtirokchilarga, hodisaga turli xil holatlardan baho berish taklif etiladi;

- muammoli nazariy va amaliy topshiriqlar aniqlanadi;

- taqqoslash umumlashtirish va xulosalar chiqarish;

- aniq savollar qo`yiladi.

Ta`limning muammoli – qidiruv uslublari amalda bilimni so`z orqali ifodalash, ko`rgazmali va amaliuot uslublar uordamida amalga oshiriladi. SHu bilan birgalikda o`quv matuerialini muammoli bauon qilish uslubini qo`llash, amaliy muammoli – qidiruv ishlarini bajarish, hatto tadqiqot tipidagi amallarni olib borish to`q`risida so`z yuritish mumkin.

O`quv matuerialini muammoli uslub uordamida o`tish muammoli tuzilgan ma`ruza uslubi orqali bilim bauoni davomida mulohaza yuritish, isbotlash, umumlashtirish, faktlarni tahlil

qilish, talaba fikrini o'z ortidan ergashtirish, uni faolroq qilish kabi usullardan foydalanishni ko'zda tutadi.

Muammoli ta'lim uslublaridan biri evristik va muammoli qidiruv suhbatini hisoblanadi. Bunda o'qituvchi (pedagog) talabalar oldiga qator izchil va o'zaro uzviy bo'qliq bo'lgan savollar majmuini qo'yadi. Talabalar ularga javob berganda qandaydir shakllarni aytadilar. Aytganlari to'g'ri ekanligini mustaqil isbotlashga harakat qiladilar. SHu bilan birga yangi bilimlarni o'zlashtirishda mustaqil ravishda oldinga siljishni amalga oshiradilar. Agar evristik suhbatda bunday taxminlar yangi mavzuning faqatgina biror qismiga aloqador bo'lsa, muammoli-qidiruv suhbatida talabalar muammoli vaziyatning butun bir tizimini uchedadilar. SHuning uchun ham bu suhbatlarning farqi shartli va faqatgina muammoli vaziyatda qo'llanish tadbirlariga taalluqlidir.

Ta'limning muammoli – qidiruv uslublarida ko'rgazmali qo'llanmalar esda saqlashni faollashtirish maqsadida emas, balki darsda muammoli vaziyatni yaratadigan eksperimentual masalalarni qo'yish uchun ishlatiladi. Bundan tashqari, kueyingi paytda rasmlar va chizmalar tizimi ko'rinishida muayyan o'quv vaziyatlari tasvirlarining ko'rgazmali qo'llanmalari ko'p tayyorlanmoqda. Bu usulda talabalarning mustaqil fikrlashining ustuvor sabablarini aniqlash oson ko'chadi.

Muammoli - qidiruv uslublari ko'proq ijodiy bilim faoliyati ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida qo'llaniladi. Ular talabalarning bilimni chuqur anglashiga, mustaqil egallashiga yordam bueradi. Bu uslublar, ayniqsa, quyidagi hollarda samarali qo'llaniladi: o'quv jarayonida tushuncha, qonun va nazariya kabilarni shakllantirish ko'zda tutilganda, faktik axborotni ma'lum qilish, mehnat faoliyatining laboratoriya-eksperimentual o'quv va ko'nikmalarini hosil qilishda, o'quv materialining mazmuni printsiplal jihatdan yangi bo'lmasdan, ilgari o'rganilganining mantiqiy davomi bo'lsa, uning asosida talabalar yangi bilimni qidirish uchun mustaqil qadam tashlasa, mazmun hodisadagi sabab-oqibat va boshqalarga olib kelsa.

Ishlab chiqarish ta'lim metodlari

Zamonaviy sharoitda bozor iqtisodiyoti yuksak kasb mahoratga mutaxassislarni tayyorlashni talab etiladi. Bu esa kasb ta'limi muassasalarida oldiga yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ularda mehnatga ijodiy munosabatni tarkib toptirish uchun ishlab chiqarish ta'limi tubdan yaxshilash vazifasini qo'yadi.

Ishlab chiqarish ta'limi xususiyatlari. Kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalarida o'quv jarayonining ishlab chiqarish ta'limi tashkil etuvchi qismi hisoblanadi. SHu bilan birga ishlab chiqarish ta'limi maqsadi, mazmuni, shakli va usullari bilan o'ziga xos xususiyatiga xam ega.

Ishlab chiqarish ta'limining asosiy maqsadi talabalarda ma'lum kasb, mutaxassislik sohasi buyicha kasbiy mahoratning shakllanishi hisoblanadi. «Kasbiy mahorat» tushunchasi mohiyatini ochib beruvchi quyidagi ko'rsatkich-mezonlarni ajratib ko'rsatamiz:

- *ishni bajarish sifati* – Texnik talablarning ish natijalari bo'yicha bajarilishi; uning o'rnatilgan ko'rsatkich va me'yorlarga mos kelishi; ijobiy natijalarni olish;
- *mehnat unumdorligi* – o'rnatilgan vaqt me'yorlarining bajarilishi; mehnatni tashkil qilish va ishni bajarishning eng tejamli va unumli usullarini, yuqori unumdorlikka ega bo'lgan texnika va texnologiyani o'zlashtirishga va bo'lgan intilishni aniqlab beruvchi vaqt mezonini baholash qobiliyati va mahorati;
- *kasbiy mustaqillik* – mehnatning yuqori sifati va unumdorligini ta'minlovchi ish usulini mustaqil tanlash mahorati; ishlab chiqarish vaziyatlarida muammolvrni mustaqil hal qilish, to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyati; ishda o'z-o'zini nazorat qilish va boshqarishni amalga oshirish;
- *mehnat madaniyati* – o'z mehnatini rejalashtirish qobiliyati va odati; mehnatning maqbul usul va uslublari, zamonaviy texnika va texnologiyani qo'llash bilan ishlay olish maxorati; ish

faoliyatida kasbiy bilimni qo'llash maxorati; ish o'rni va mehnatni to'q'ri tashkil qilish, mehnat xavfsizligi qoidalariga rioya qilish;

- *mexnatga bo'lgan munosabat* – mehnatni tashkil etishni va usullarni takomillashtirish, ish jarayoniga yangi asl nusxadagi mehnat qurolini joriy qilishga intilish va yetakchilik qobiliyati, ilmiy yechimlar va ixtirolarni topishga bo'lgan intilish va qobiliyat;
- *mehnat faoliyatining iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi* – bajariladigan mehnat jarayonini iqtisodiy tahlil qilish, ishni bajarish jarayonida iqtisodiy jihatdan maqbul qarorlarni qabul qilish qobiliyati.

Bu ko'rsatkichlar orqali ishlab chiqarish ta'limi mazmuni, tashkil etilishi va usullarining barcha masalalarini ko'rib chiqish zarur.

Ishlab chiqarish ta'limi usullari oldingi paragrafda ko'rib o'tilgan nazariy o'qitish usullariga o'xshashdir. Ayniqsa ishlab chiqarish ta'limi jarayonida nazariy o'qitishning ko'plab usullari ishtirok etadi. SHu bilan bo'qliq ravishda faqat ishlab chiqarish ta'limi uchun xos bo'lgan metodlarni ko'rib chiqamiz. Bularga to'rt poq'onali, xarakat usulini namoyish qilish, mashqlar, talabalarning mustaqil kuzatishi, uozma ko'rsatmalar, mehnatga ijodiy yondashuvning shakllantirish, shuningdek ishlab chiqarish ta'limining ba'zi «faol» usullari kiradi.

Bugungi kunda bosqichlarni murakkabroq qilishga harakat qilinmoqda. Ya'ni shunday mashqlar kiritilishi mumkin, ular doirasida talaba bir vaqtning o'zida bir neecha ko'nikmalar va jarayonlarni amalda bajarishi kerak. «Tushuntirish» va «namoyish etish» poq'onalari esa, bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Bu usul kasb-hunar kollejlarda kasbiy fanlardan amaliy ko'nikmalarni o'rgatishda juda yaxshi samara bueradi.

Ish harakati usullarini namoyish qilish muetodi. Bu metodini qo'llashdan maqsad talabalar ongiga ish harakatining aniq ko'rish tarzini yaratishdir.

Ish harakatining aniq va to'liq tarzi talabalar ongiga bir lahzada yuzaga kuelmaydi. Avval u umumiy ko'rinishda taassurot qoldiradi. So'ngra asta-suekin faoliyatlar bo'yicha aniqlanadi.

Ish usullari namoyishini qabul qila borib talabalar nafaqat tushunishlari, bilki usta tomonidan ularga ko'rsatilauotgan barcha usullarni alohida faoliyatlar bo'yicha uodda saqlab qolishlari kuerak. SHuning uchun ish usullari namoyishini takrorlash, ya'ni bir neecha marta amalga oshirish lozim.

*Mashq*-ko'nikma va maxoratlarining tashkil etuvchilari bo'lganligi kabi ishlab chiqarish ta'limining ham asosiy usuli bo'lib xisoblangan mashqlar bilan shakllanadi. Mashq dueganda ongli ravishda ma'lum bir faoliyat usuli bo'yicha amaliy xarakatlarni ko'p martalab takrorlash tushuniladi.

Mashqlarni mazmuni va o'tkazish usullari xususiyatlariga qarab guruhlarga ajratish mumkin. Mashqlar ikki xil uondashuv – asosida tuzilishi mumkin. Birinchisiga didaktik maksadlar bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan mashqlar; boshlanq'ich maxoratni va murakkab maxorat shakllantirishga yo'naltirilgan mashqlar kiradi. Ikkinchisiga mazmun bo'yicha: ish usullarini bajarishda yo'naltirilgan mashqlar; ish jarauonlarini bajarishda yo'naltirilgan; tuexnologik jarauonlarni boshqarishga yo'naltirilgan mashqlar kiradi.

Ishlab chikarish ta'limi jarauonida talabalarning kasbiy maxoratni shakllantirish maqsadida kuetma-kuet murakkablashib boruvchi mashklar tizimi ishlab chiqilishi lozim.

*Talabalarining mustaqil kuzatuvi.* Bu usul asosan murakkab tuzilishdagi jixozlarga xizmat ko'rsatish bilan bo'qliq kasbni egallamokchi bo'lgan talabalarining ishlab chiqarish ta'limida qo'llaniladi.

Kuzatuv talabalar tomonidan mustaqil ravishda, ishlab chikarish ta'limi ustasining nazorati va uning ko'rsatmalari bo'yicha o'tkaziladi. Topshiriqda odatda mustaqil kuzatuvlar

maqsadi qo'yiladi, ularni o'tkazish tartibi ko'rsatiladi va kuzatuvlar natijalarini qayd qilish bo'yicha ko'rsatmalar bueriladi.

*Uozma ko'rsatma buerish.* Bu usulni qo'llash ishlab chiqarish ta'limi darslarida mustaqil axborot manbai xisoblangan turli xil ko'rsatmali o'quv hujjatlaridan foydalanish bilan boq'liq. Ishlab chiqarish ta'limida ko'rsatmali, tuexnologik xaritalar va o'quv algoritmlari ko'p qo'llaniladi.

Ko'rsatmali xaritalar texnologik jarayonlarini o'rganishda qo'llaniladi. U o'rganilayotgan ob'ektda texnologik jarayonlar bajarilishi usullari, kuetma-kuetligi, qoidasi, vositalari, tartibi, nazorat va o'z-o'zini nazorat qilishni ochib bueradi.

Texnologik xaritalar xar tomonlama xususiyatga ega bo'lgan ishlarni bajarishda qo'llaniladi; ular faoliyat usulini bajarishning tuexnologik kuetma-kuetligi, tartiboti, tuexnik talablari, vositalarini ochib bueradi.

O'quv algoritmlari talabalarga murakkab jixozlarni rostlash, ularga xizmat ko'rsatish va sozlashni o'rgatishda qo'llaniladi.

*Ishlab chiqarish ta'limning faol usullari.* O'quv ishlab chiqarish ishlarini bajarishda faollik ya'ni fikriy, ongli ravishdagi, ijodiy faollik muxim axamiyatga ega. U talabalarda o'z xarakterlarini ko'rsatilgan namuna bilan mos ravishda ongli ravishda tuzatishlarida, ijobiy natijalarga olib kueluvchi faoliyat usullarini mustaqil tanlashlarida, o'z muehnatlarini rejalashtirish, xatolarni taxlil kilish va tuzatishda namoyon bo'ladi. Ishlab chiqarishda talabalarning faolligi – bu ularning mashina, agregat, qurilma ishining tashqi belgilari bo'yicha ichki jarayonlarni tasavvur qilishlari va ushbu buelgilarining taxlili asosida zaruriy xollarda uni rostlash bo'yicha maqsadga muvofiq qarorlar qabul qilish qobiliyatidir; bu egallangan faoliyat usullarini makbullashtirish, o'zgaruvchan sharoitlarda mahorat bilan harakat qilish qobiliyatidir.

Ishlab chiqarish ta'limining «faol» usullariga avvalambor ishlab-chiqarish texnik vazifalarini uechish kiradi, ya'ni:

- ishlov berish, rostlash, sozlash ishlari;
- dastur bilan boshkariladigan avtomatlashtirilgan jihozlar uchun boshqaruv dasturlarini ishlab chiqish va sozlash;
- mashinalarning kinematik va printsipial sxemalaridan foydalanib ishlash tartibotlari va parametrlarini aniqlash;
- jihozlarni urnatish sxemalarini ishlab chiqish;
- ishlov berish, yiq'ish, rostlash bo'yicha texnologik jarayonlarini mustaqil ravishda ishlab chiqish. Ishlab chiqarish ta'limi ustasi tomonidan taklif etilgan yoki talabalar mustaqil ishlab chiqqan bir necha texnologik jarayondan eng maqbulini tanlash;
- ish vaqti, materiallar, energiyani tejash bo'yicha takliflarni ishlab chiqish va hokazo.

Ishlab chiqarish ta'limining «faol» usullariga shuningdek turli xil ishlab chiqarish vaziyatlarida mustaqil qaror qabul qilishga va yechishga yo'naltirilgan maxsus mashqlar ham kiradi. Bunday mashqlar talabalarni haqiqiy sharoitlarda yuzaga kueluvchi o'xshash vaziyatlarda harakatlarga tayuorlaydi.

Mashq uchun mashinada ish sharoitini u yoki bu darajada o'xshatuvchi, shuningduiek muayyan ish joyida yuzaga kueluvchi texnologik tartibotning asosiy buzilishlari vaziyatini yaratish zarur. Bunday vaziyatlar texnologik vazifalar deb ataluvchi topshiriqlarda berilishi mumkin.

Ta'lim metodlarini tanlash

Ta'lim metodlarini tanlash birinchidan, darsdan ko'zda tutilgan o'quv maqsadlariga boq'liq. Masalan, agar darsning maqsadi yangi bilimlarni egallashdan iborat bo'lsa, o'qituvchi bu bilimlarni o'zi bayon qiladi uoki talabalarning kitob bilan mustaqil ishlashini tashkil qiladi.

Birinchi holda u turli xil narsalarni ko'rsatish bilan qo'shib olib boriladigan hikoya, tushuntirish, ma'ruza uoki suhbat muetodidan foydalanishi mumkin. Agar darsda talabalarda amaliy ko'nikmalar hosil qilinishi kerak bo'lsa, buning uchun mashq qilish metodi qo'llaniladi.

Ikkinchidan, o'rganiladigan fanning mazmuni va darsning konkret materialiga boq'liq bo'ladi. Masalan, "Tikuvchilik texnologiyasi" fanida o'rganish kiyimga ishlov berishda bir xil metodlar, ishlab chiqarish ta'limi darslarida esa butunlay boshqa metodlar qo'llaniladi. Ayrim hollarda o'rganilauotgan texnologik jarauonlarni talabalar bevosita kuzatishlari mumkin. SHuning uchun o'qituvchi bu kuzatishni tajribalarda yoki mehnat faoliyati jarayonida tashkil etadi. Agar ularni bevosita kuzatish mumkin bo'lmasa, o'qituvchi turli xil ko'rsatmali qurollarni namoyish qilishdan foydalanadi.

Uchinchidan, talabalarning ilgari tayyorgarlik darajasiga va shaxsiy tajribasiga boq'liq. Agar yangi matuerial talabalarga butunlay notanish bo'lsa, o'qituvchi buni o'zi bauon qiladi, buni ko'rsatmali qurollar va tajribalarni ko'rsatish bilan qo'shib olib boradi.

nihoyat, ma'lum bir o'qitish metodini tanlash asbob-uskunalar, ko'rsatmali qurollar va o'quv jarauonining normal o'tishini ta'minlaydigan boshqa shart-sharoitlarning borligiga, shuningduek, o'qituvchining tajribasi, ish uslubi va shaxsiy sifatlariga boq'liq. O'qituvchining vazifasi-bu shart-sharoitlarni yaxshilash hamda o'zining pedagogik mahoratini doimo takomillashtirib borishdan iborat.

*Kasb ta'limni tashkil etish shakllari.*

Ta'lim jarayoni ishtirokchilari (O'qituvchi va tahsil oluvchilar)ning ma'lum buelgilangan tartibda amalga oshiriladigan hamkorlikdagi faoliyatining tashqi ko'rinishi kasbiy ta'limning tashkiliy shaklini anglatadi.

Hozirgi paytda kasbiy ta'limning tashkiliy shakllari quyidagi hususiyatlariga binoan turlanadi:

1. Tahsil oluvchilar soniga ko'ra-ommaviy, jamoaviy, guruhli, individual.
2. O'qitish joyiga ko'ra-ta'lim-tarbiya muassasalarida va ta'lim muassasalaridan tashqarida (o'quv ustaxonalarida, mashq maydonlarda, korxonalarda, uy ishlari, sauhat va shu kabilar).
3. O'quv vaqtining davomiyligiga ko'ra-45 minutlik, juftlik (90 min), qisqartirilgan (70 minutlik), qo'nq'iroqsiz.

Amaliyotda sinf-dars tizimi keng ko'lamda qo'llanilganligi sababli dars ta'lim tarbiya ishining asosiy shakli dueb yuritiladi. Sinf-dars tizimining asosiy o'ziga hos jihatlari quyidagilar hisoblanadi:

- deyarli bir xil tarkib, yosh va tayuorgarlik darajadagi tahsil oluvchilar ishtirok etadi;
- ta'lim-tarbiya jarauoni o'zaro boq'liq alohida-alohida qismlar ko'rinishiga ega bo'ladi;
- har bir dars o'quv ruejasiga kirgan ma'lum bir o'quv pruedmuetiga oid bo'ladi;
- darslar muntazam ravishda almashib turadi;
- kasb ta'lim darslariga o'qituvchi muhandis-puedagog, tajribali mutaxassis kabilar rahbarlik qiladi;
- tahsil oluvchilar turli ko'rinishdan o'quv-bilish faoliyatida ishtirok etadilar.

Ijtimoiy talablar, kasb ta'limining maqsad va vazifalari, tahsil oluvchilarning talab hamda ehtiuojlari, ta'lim-tarbiya qonuniyatlari, printsiplari kabilarga ko'ra kasbiy-ta'lim darslariga quyidagi talablar qo'yilishi kuelib chiqadi:

1. Fan-texnika va ishlab chiqarish texnologiyalarining so'nggi yutuqlari, ilq'or pedagogik tajribalardan imkon qadar foydalanish, ta'lim-tarbiya qonuniyatlariga asosanib dars tuzilmasini maqbullashtirish:
2. Darsda barcha didaktik printsiplarning maqbul nisbatini ta'minlash:

3. Tahsil oluvchilarning qiziqishi, ehtiyojlari, moyilligini hisobga olgan holda mahsulli o`quv-bilish faoliyatiga shart-sharoit yaratish;
4. O`quv materialini mukammal o`zlashtirilishi uchun fanlararo aloqadorlikka amal qilish;
5. Tahsil oluvchilar tomonidan ilgari o`lashtirilgan bilimlar va ularning hauotiy tajribalariga tayangan holda ish ko`rish;
6. Tahsil oluvchilarning barcha ijobiy jihatlarini raq`batlantirish, o`quv-bilish faoliyatini faollashtirish yo`li bilan rivojlantirishga erishish;
7. Darsning barcha bosqichlarida mantiqiy va emotsional his-tuyq`ularga asoslanish;
8. Didaktik materiallar va vositalardan samarali foydalanish;
9. nazariy materialni amaliyot bilan uzviy boq`lab o`rganish;
10. Zaruriy bilim, ish harakat usullari, oqilona fikrlash va amaliy faoliyat ko`rsatish usullarini tarkib topdirish;
11. Tahsil oluvchilarda uzluksiz ravishda o`qib-o`rganish, o`z bilimi va kasbiy mahoratini oshira borish malakasini shakllantirish;
12. Darslarni mukammal rejalashtirish natijalarini oldindan bashorat etish va tashhislash.

Kasb ta`limiga oid zamonaviy darslarda bir-biri bilan uzviy boq`liq ta`limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni uyq`unlashtirish bu sohadagi aniq maqsadlarni ham aniqlashtirib olishni talab etadi.

Kasb ta`limda zamonaviy darslarga quyidagi didaktik tadlablar qo`yiladi:

- A) har bir darsning ta`limiy vazifasini aniq buelgilab olish;
- B) ijtimoiy talab va tahsil oluvchilarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta`lim mazmunini maqbullashtirish;
- V) o`quv-bilish faoliyatini samarali puedagogik tuexnologiyalar asosida tashkil etish;
- G) ta`limning turli shakl, muetod va vositalarining oqilona uyq`unligini ta`minlash;
- D) dars tuzilmasini ijodiy uondoshgan holda shakllantirish;
- J) tahsil oluvchilarning turli o`quv-bilish faoliyatlarini uyq`unlashtirish;
- Z) ta`lim jarauoni ishtirokchilari orasida tuezkor tueskari aloqani ta`minlash, ta`sirchan boshqaruv muexanizmini ishlatish;
- UYE) darsni ilmiy-uslubiy asosda tashkil etish.

Darsga qo`yiladigan tarbiyaviy talablar quyidagilarni ko`rsatish mumkin:

- o`quv materialining tarbiyaviy imkoniyatlariga aniqlab, ulardan oqilona foydalanish;
- ta`lim mazmuni va maqsadlaridan kuelib chiqadigan tarbiyaviy vazifalarni qo`yish;
- tahsil oluvchilarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash;
- tahsil oluvchilarga aniq va do`stlarga munosabatda bo`lish;

Darsga qo`yilgan rivojlantiruvchi talablar;

- tahsil oluvchilarda o`quv-o`rganish bo`lgan ijobiy raq`batni shakllantirish va rivojlantirish;
- tahsil oluvchilarning psixologikxususiyatlari va rivojlanganlik darajasini o`rganish va xisobga olish;

-o`quv mashq`ulotlarini odimlash (ilgarilab borish) darajasida o`tkazish;

- tahsil oluvchilarni aqliy, emotsional va ijtimoiy rivojlanishlarini oldindan bashorat etish va bo`ladigan o`zgarishlarga mos ravishda tuezkor o`zgartirishlar kiritish;

Bundan tashqari kasb ta`limi muetodikasida tashkiliy, psixologik, boshqaruvchilik, maqbul muloqot o`rgatish, xamkorlik qilish sanitariya-gigienua, etik va shu kabi talablar ham hisobga olinadi.

2. «Tarbiya san`ati – deyarli hammaga tanish va tushunarli, ba`zilarga esa, hatto oson tuyulish xususiyatiga ega, u qanchalar tushunarli va oson tuyulsa, o`sha inson u bilan nazariy va amaliy jihatdan shunchalar kam tanish», degan edi K.D.Ushinskiy.

Tarbiya – pedagogik nazariya va amaliyotidagi eng o'zgaras, va eng qadimiy muammodir. Lekin, «Bolalarni tarbiyalash muammosi yo`q, faqatgina: qanday qilib bolalar va kattalar birga yashashlari mumkin, duegan bir savol bor, xolos,» duegan edi L.n.Tolstoy. Bunday tarzda qo'yilgan savol eng avvalo, o'zingizga nazar tashlashingiz kuerak bo'lgan har qanday holatdagiduek o'ta murakkabdir.

Tarbiya, asosan, quyidagi vositalar uordamida amalga oshiriladi: ko`rsatish va tushuntirish, raq`batlantirish va jazolash, vazifa buerish va talab qilish, tuekshirish, tuzatish, ishontirish va tahlil qilish. Ana shunday ta`sir ko`rsatish yo`li bilan kattalar bolalarning bilish va amaliy faoliyatlarini yuzaga kueltirib, ma`lum tomonga yo`naltiradilar va bu faoliyatlar nazorat qilinib, to`q`rilab hamda shuning bilan birga faoliyatlarni rivojlantirish amalga oshiriladi.

Pedagogikada tarbiya berish usuli ikki turga bo`linishi qayd etilgan. Avvalgi usul, (ilhomlantiruvchi) san`atni o`z raq`batlari bilan o`rganuvchilarga ishlatiladigan usul. Ikkinchi usul, (majbur etish) esa majburiy ravishda tarbiyalanuvchilarni tarbiyalash uchun ishlatiladigan usul. tarbiya beruvchi uoki shogirdlar ustida turgan o`qituvchilarning qo`llaydigan usuli bunga misoldir. Masalan, hukumat yoki davlat, mazkur mamlakatda yashovchining muallimi, tarbiyachisi bo`ladi. Bolalar ustida turgan odam esa muallim bo`lib, u bolalarga tarbiya berishda turli tarbiya usulidan foydalanadi. Mana shundan ma`lum bo`ladiki, hukumat (davlat) va muallim har ikkovi o`z yo`lida bolalar yoki mehnatkashlarga tarbiya beruvchi ustoz va muallimlardir. Ulardan biri bolalarga muehribonlik va yaxshi so`zlar bilan tarbiya bersa, ikkinchisi majburiy ravishda tarbiyalaydi.


Forobiy tarbiyaning usuli dueganda axloqiy fazilatlarni tushunadi. Uning tasavvurida axloqiy fazilatlar bilimdonlik, donolik va mulohazali bo`lish, vijdonlilik, kamtarlik, ko`pchilik manfaatini yuqori qo`yish, haqiqat, ma`naviy yuksaklikka intilish, adolatlilik kabi xislatlardir. Ammo, bu xislatlarning eng muhimi har bir insonning bilimli, ma`rifatli bo`lishidir. SHuning uchun ham, Forobiy axloq tushunchasiga aql bilan uzviy boq`liq holda tafakkurga asoslangan axloq sifatida qaraydi. Bundan biz Forobiyning axloqni xulq mue`uorlari ifodasi sifatidagina emas balki kishilarning aqliy faoliyatning natijasi sifatida ham talqin etilganligini ko`ramiz. Forobiyning ta`lim – tarbiya yo`llari, usullari, vositalari haqidagi qarashlari ham qimmatlidir.

Forobiy ta`limda barcha fanlarning nazariy asoslari o`rganilsa tarbiyada ma`naviy, axloqiy qoidalar, odob me`uorlari o`rganiladi, kasb – hunarga oid malakalar hosil qilinadi deb tushuntiradi.

Bahouddin naqshband tarbiyaviy qarashlarining markazida orif insonni shakllantirish q`oyasi uotadi.

Ta`lim – tarbiya ishlari ham naqshband q`oyalarini ifoda etuvchi mafkura sifatida amalga oshiriladi. Farzandlarga islom diniga e`tiqod qilishni o`rgatish bilan birga alloma mehnatni sevishni, axloqli bo`lishni, odamlarga yordam ko`rsatishni, bilim olish, hunar o`rganish va boshqa olijanobliklarni uqtiradilar. Masjid va madrasalarda talabalar ongida ollohga yaqin bo`lishning to`q`ri va samarali yo`li tarki dunuochilik emas, balki jamiyat saodati uchun yashash, bunyodkorlik, savob ishlar va mehnatni qadrlash, ilm va bilim olishdir. Mukammal axloqqa erishish, xullas jamiyat hayotida faol ishtirok etishni taqozo etadigan xulq – atvorni, sa`y – harakatni o`zida mujassam etadigan mafkura izchil ravishda singdirildi.

Agar bolalarga jazo berish sabablarini chuqur tahlil qiladigan bo'lsak, burchakda tik qo'yish yoki shirinlikdan mahrum qilish jazosini atroflarida shu «sho'r suv»ni «shimish»ga olib keladigan shunday muhitni yaratib qo'rganlarini sezmaydigan kattalarga berish kerak bo'ladi. Lekin, ularning shu siz ham muammolari ko'p, shuning uchun ular o'zlariga tinmay: «Men o'z ehtiyojlarimni boshqarayapmanmi? nimani afzal ko'rib, nimani ko'proq qadrlayapman? Va bu hatti – harakatim boshqalarga bo'lgan munosabatlarimda qanday aks etyapti?» duegan savollarni beraverishdan tortinadilar. O'z hissiyotlarini boshqarish, ularni (o'z erkinligini) chueklash, boshqasini (va uning erkinligini) hisobga olish – tarbiyaning asosi. Shu ma'noda, o'quv dargohini (o'qituvchilar) mutaxassislar rahbarligi ostida mashq qilib ko'rish mumkin bo'lgan mashq maydonchasiga o'xshatsa bo'ladi. Tajribali tarbiyachi, eng avvalo, har bir talabaning o'z hissiyotlarini hisobga olib, uni maqsadga yo'naltiradi, ularni boshqarish uchun sharoit yaratib beradi. Bu jadvalda shunday ko'rinish kasb etadi:



Hissiyotlar boshqarilishi – bu dolzarblikni tushunish, qiziqish harakatga undovchi sabab – faollik, qaror qabul qilish duemak. Agar har birimiz o'z dunuoqarashimizni kuengaytirish orqali o'z hissiuotlarimizni boshqarish, muvofiqlashtirish, mue'uorga intilishni o'rgansak, hauotimizdan jahldorlik, ochko'zlik, munofiqlik ketib, aqlimiz kiradi. Ongimizning aynan shu qismi o'z hauotimiz ma'naviyati darajasini boshqaradi, ya'ni yaxshilik yoki yomonlik; ijodiy yaratuvchanlik yoki bema'ni vayrongarchilik; boshqalarga nisbatan sevgi yoki nafratga o'z munosabatimizni belgilaydi.

Xulosa qilib aytsak, tarbiyani o'z hissiyotlarini, xohish va istaklarini boshqarish jarayoni, deb aytsak xato bo'lmaydi.

### 3.Kasb hunar ta'limi mazmunini belgilovchi me'yoriy hujjatlarga quyidagilar kiradi

*Davlat ta'lim standartlari (DTS)*- umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va Oliy ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi. DTS larini bajarish O'zbekiston respublikasining barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir.

Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti (bundan kueyin OTDTS) kadrlar tayyorlash sifatiga, ta'lim mazmuniga qo'yilgan talablar; ta'lim oluvchilar tayyorgarligining zaruriy va yetarli ta'lim muassaslari bitiruvchilariga qo'yilgan malakaviy talablar; o'quv yuklamasining maksimal hajmi; ta'lim muassasalari faoliyati va kadrlar tayyorlash sifatini baholash tartiblari hamda yo'l-yo'riqlarini belgilaydi.

*Kasb-hunar ta'limi tarmoq standarti* – yo'nalishlar bo'yicha kichik mutaxassislarni tayyorlashning zarur va yetarli mazmuni hamda pirovard maqsadlarini aniqlaydi, ta'lim oluvchilarning o'quv yuklamalari hajmi va standart sifatлари nazoratini buelgilab beradi.

Ta'lim- tarbiya jarayonini tashkil etishni rejalashtiruvchi, asosiy hujjat o'quv rejalari hisoblanadi. O'quv rejasi kasb-hunar ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishni, o'quv fanlarini alohida o'rganish sur'atini ta'minlovchi hujjat hisoblanadi.

O'quv rejasi – har bir yo'nalish uchun alohida tuzilib, vazirlik tomonidan tasdiqlanadi. Unda quyidagilar o'z ifodasini topadi:

9. Tayyorlov yo'nalish (ixtisoslik) kodi va uning nomlanishi.
10. O'qish muddati.
11. Tugatgandan so'ng olinadigan akademik darajasi.
12. Ta'lim shakli.
13. O'quv davrining taqsimoti (jadvali)
14. O'quv jarauonining rejasi.
15. O'rganiladigan o'quv pruedmuetlari.
16. Har bir o'quv pruedmuetini o'rganish uchun ajratilgan umumiy vaqt miqdori.
- 4.1. O'rganish uchun ajratilgan vaqtni-ma'ruza amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishlari, seminarlar, kurs loyihalari va mustaqil ta'limga qanday miqdorda taqsimlanganligi.
- 4.2. O'quv predmetini qaysi bosqich, semestrlarda haftasiga qancha soatdan o'rganish tartibi.
5. Davlat attestatsiyasi.
6. Tanlov fanlarining ro'yxati.
7. Izohlar kabilar.

O'quv rejalari mazmuni va tuzilishiga mos holda quyidagi omillarga e'tiborni qaratmoq lozim:

- Ta'lim va tarbiyaning maqsadli yo'naltirilganligiga;
- Mehnat va ishlab chiqarish jarayonining tuzilishiga;
- Ta'lim- tarbiya jarayonining qonuniyatlariga.

O'quv rejalari ishlab chiqishda bo'lg'usi mutaxassislarda shakllantirilayotgan malaka mahoratlari darajasining o'rganilayotgan o'quv fanlari miqdoriga va o'rganish davriga aniq mos tushishini e'tiborga tutmoq lozim. Bo'lg'usi mutaxassislarning bilim va ko'nikmalarining shakllanishini, har bir fanni bosqichma-bosqich o'rganishlari chuqurligi, qulay va muqimligini ham nazarda tutishi kerak bo'ladi.

Dastur o'quv predmetining mazmuni, uni tahsil oluvchilar tomonidan o'zlashtirilishining eng maqbul usullari, tartibi, axborot manbalarini o'zida mujassamlashtiruvchi me'yoriy hujjatdir.

O'quv dasturi - shu nom bilan nomlangan o'quv predmetiga tegishli bo'ladi. O'quv predmeti – ta'lim muassasasida o'rganish uchun fan, texnika, san'at, ishlab chiqarish faoliyatining muayyan sohasidan tanlab olingan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar tizimidir.

4. Uzluksiz ta'lim tizimining oldiga qo'yilgan davlat va ijtimoiy buyurtmaga muvofiq, oliy o'quv yurtlari ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish, ilm-fanning so'nggi yutuqlarini amaliyotga joriy etish orqali ijodkor, ijtimoiy faol, yuksak ma'naviyatli, kasb-hunarli, Ona-Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan, ijodiy va mustaqil fikr yurita oladigan, davlat va jamiyat oldida o'z burchi va javobgarligini his etadigan barkamol shaxsni kamolga etkazish, ularning ongi va qalbiga milliy istiqloq g'oyasini singdirish kabi muhim vazifalarni amalga oshirish nazarda tutiladi.

Ushbu vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishi ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishni taqozo etadi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va o`zlashtirish zarurligi ko`p marta takrorlanib, ularni uquv muassasalariga olib kirish zarurligi uqtirilgan.

respublikamizning taniqli olimlari ilmiy asoslangan, mintaqamizning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan pedagogik texnologiyalarni yaratish va ularni ta`lim-tarbiya amaliyotida qo`llashga intilmoqdalar.

Shu o`rinda savol tug`iladi. Pedagogik texnologiya atamasining mohiyati nimada? «Texnologiya» yunoncha so`z bo`lib, «techné»-mahorat, san`at, «logos»-tushuncha, o`rganish demakdir.

Avvalo, nega bugungi kunga kelib, pedagogik texnologiyaga qiziqish shunchalik darajada kuchaydi, degan vaziyat yuzaga keladi. Jamiyatimizga qanchadan-qancha bilimli va malakali kadrlarni etishtirib kelgan pedagogikaning uslublari mavjud. Pedagogik jamoatchilikning aksariyati mana shu yo`ldan bormoqda, ammo mustaqillik va kelajak sari intilayotgan jamiyatga bu yo`l uzoq xizmat qila olmaydi. Chunki buning zamirida ma`lum sabablar mavjud, ya`ni;

1. rivojlangan mamlakatlar qatoridan o`rin olishi uchun, aholi ta`limini jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarurligi;
2. Fan-texnika taraqqiyotining o`ta rivojlanganligi natijasida axborotlar tizimining tobora ko`payib borayotganligi;
3. Zamonaviy texnikalarni ta`limga tatbiq etish, ta`lim jarayonini kompyuterlashtirish, o`quv-tarbiya jarayonida axborot texnologiyasi va texnik vositalardan foydalanish kerakligi;
4. Talaba va o`qituvchi faoliyatini to`g`ri yo`lga qo`yish, o`qituvchi ta`lim maqsadi va mazmunini puxta bilishi, ta`lim usullari va texnik vositalarni yaxshi egallagan bo`lishi, talabaning qiziqish va intiluvchanligini to`g`ri yo`lga qo`yilganligi;
5. O`qituvchi ta`lim jarayonini yuqori darajada samarali tashkil etish uchun maqsad va vazifalarni aniq belgilashi, ta`lim natijasini oldindan qayd etishi, uquv predmetlarini to`liq o`zlashtirishga erishish uchun zaruriy ta`lim vositalari, shart-sharoitlarini tayyorlashga erishganligi;
6. O`quv jarayoni uchun zarur moddiy-texnik bazaning yaratilganligi;
7. Ta`lim-tarbiya jarayoni natijalarini xolisona va ob`ektiv baholash, talabalarning bilim va malakalarini egallash jarayonini nazorat qilish va baholashni avtomatlashtirishga erishilganligi;
8. O`sib kelayotgan yosh avlodni hayotga mukammal tayyorlash talabi ularga eng ilg`or bilim berish usuli hisoblangan ob`ektiv borliqqa majmu yondashuv tamoyilidan foydalanishni talab qilishidadir.

Demak, zamonaviy pedagogik texnologiya yuqorida keltirilgan shartlarning barcha talablariga javob beradigan ta`limiy tadbir hisoblanadi.

O`quv-tarbiya ishlari jarayonida talaba yoshlarni ijodiy fikrlashga, o`zgaruvchan vaziyatlarga o`rgatish, erkin raqobat asosida faoliyatni tashkil etish hamda talabalarni axborot texnologiyalari, elektron darsliklar, versiyalar va multimedialardan amaliy mashg`ulotlarda foydalanishi muhimdir. Bu esa talabalarda mustaqillik, erkin fikrlashni tarbiyalashni, o`quv faoliyatini tahlil qilishni, istiqbolda kasbiy mahorat va kompyuter savodxonligini orttirish bo`yicha rejalarini aniq belgilashiga erishishni ularning ichki ehtiyojiga aylantirish talab etiladi.

Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari ta`lim-tarbiya jarayonining bir tizimga solingan ilmiy-nazariy va metodik asoslangan yangi shakl, usul va vositalarining majmuidir. Bunda yangi mazmun, shakl, usul va vosita uyg`unligida maqsad, vazifa, faoliyat va pedagogik natija yaxlitligi ta`minlanadi hamda o`quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan o`quv

jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondoshuv, eng avvalo, tasvirlash emas, balki loyihalashtirilgan natijalarni amalga oshirish imkonini beruvchi amaliy ko'rsatmali tuzilmada o'z ifodasini topadi.

Ta'lim texnologiyasi reproduktiv dars berishga asoslangan bo'lib, undagi o'quv jarayoni talabalarga tipik holatlardagi harakatlarni egallashga yo'naltirilgan. reproduktiv bilim berish jarayonida mashg'ulot aniq bo'laklarga bo'linib, har bir bo'lagida talabalar bilishi va o'rganishi shart bo'lgan natijalar ko'rsatiladi. O'quv materiallari mashg'ulot maqsadidan kelib chiqib, modullarga bo'lingan va talabalarning o'quv jarayoni aniq savollarga konkret javoblar topishga qurilgan bo'lib, savollar va javoblar o'zaro uzviy bog'liqlikda bo'lishi natijasida bir butunlikni tashkil qiladi.

Yangicha yondoshuv, yangicha fikrlash asosida o'qitish jarayonida talabalar faoliyatining samarali shakl va uslublari, ularni mustaqil ishlarini tashkil qilish kerak. Bunday mustaqil topshiriqlar talabalarni o'ylashga, har tomonlama fikr yuritishga, berilgan topshiriqlarni o'z hayotiy tajribalariga asoslanib hal etishga o'rgatadi.

Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni o'tish jarayonida muammoli vaziyat talabalarning qiziqishi, bilim saviyasi, fikr yuritish doirasi hisobga olingan holda tashkil qilinadi. Muammoli vaziyatni yaratishdan ko'zlangan asosiy maqsadni amalga oshirish uchun vaziyatni baholashda talabalarning og'zaki va yozma javoblaridan vaqti-vaqti bilan foydalanish maqsadga muvofiqdir.